BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 1-noyabr, №44 (3106)

4-5 JISMONIY QOBILIYAT JANGOVAR SALOHIYAT DEMAKDIR

7 YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDONA TAFAKKUR

14 FAXRIYLAR HAYOTI – YOSHLARGA O‘RNAK

16 ULUG‘VOR FASL VOQEALARI



HARBIYLAR – ELNING QALQONI!

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz


t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya






SENI ULUG‘LAYMAN, ONA VATANIM – O‘ZBEKISTON!

PUBLITSIST O‘YLARI

Saylovdan saylovgacha yurtimizda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari har bir kishi qalbiga g‘urur va iftixor tuyg‘ularini baxsh etadi.



Insonga insondan joiz muruvvat,
Ishq, sadoqat ila muhtaram inson.
Vatan bo‘y-bastiga millati quvvat,
Poydor sarhadlarga farzandlar posbon.
Azim Suyun aytar fidoyi jon bu!
Jahon ichra jahon – O‘zbekiston bu!

Vatan ta‘rifini vatanparvar va haroratli so‘z sohibi – tuyg‘ulari olov shoirdan o‘tkazib madh etish mushkul. Darhaqiqat, jonajon yurtimiz – O‘zbekiston har bir inson qalbida g‘urur va iftixor tuyg‘ularini jo‘sh urdirib yuboradi. Vatan farzandlari fuqarolik tuyg‘usini his etib, sadoqat bilan xizmat qilishga va uni yanada yuksaltirishga mas’uldir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga bundan besh yil avval o‘tgan saylovdan beri yurtimizda barcha sohalar yanada taraqqiy etdi, turli jabhalarda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Vatanimiz ko‘rki, qiyofasi tubdan o‘zgarib ketdi.

O‘zbekiston jahon hamjamiyatida har jihatdan katta mavqeni egallagan. Buni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan turib so‘zlagan olamshumul nutqlaridan ham, Prezidentimiz tashabbusini butun dunyodagi yirik davlatlar qo‘llab-quvvatlayotganidan ham ilg‘ash qiyin emas. Yurtboshimiz dunyoda tinchlik hamda barqarorlikni saqlashga doir e’tiborga molik va foydali takliflari tufayli har doim Markaziy Osiyo davlatlari orasida katta nufuzga ega ekanini namoyish etmoqda.

Vatanni madh etishni doimo xush ko‘radigan iste’dodli shoira Guljamol Asqarova toshqin va yoniq tuyg‘ularini quyidagicha ifodalaydi:

Bir kun Vatan deya yuksalsa ruhim!
Xalq desam, boshimga tig‘ kelmasidan.
Ota, Tuproqlaring eslarmi meni,
Vatan o‘chirmasmi... xotirasidan?!

Keyingi olti-yetti yil davomida Vatanimiz iqtisodiy salohiyati har qachongidan ko‘ra yuksaldi. Darhaqiqat, O‘zbekiston iqtisodiyoti tobora tez o‘sib borayotgan davlatlar qatoriga kirganini ko‘pchilik sharhlovchilar e‘tirof etishayotir. Yuqoridagi fikrimizning rostligini Jahon bankining 2024-yilgi hisobotidan ham bilish qiyin emas. Unda qayd etilishicha, yurtimiz bu yil Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida yalpi ichki mahsulotning eng yuqori o‘sishi kuzatilayotgan uchta davlatning biri ekan. Hatto O‘zbekiston iqtisodiyoti joriy yilning to‘qqiz oyida 6,6 foizga o‘sgani ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu tahsinga loyiq natija!

Vatanimizning iqtisodiy salohiyati yil sayin barqarorlashib, rivoj topib borayotgani yaqinda Qozon shahrida BRIKS birlashmasi davlatlarining sammitida ham alohida qayd etildi. Shu bilan birga O‘zbekiston xalqaro savdo uchun logistika markaziga aylanayotgani ham ta’kidlandi. Jonajon yurtimiz dunyodagi rivojlangan davlatlar bilangina emas, qo‘shni mamlakatlar bilan ham savdo va iqtisodiy aloqalarni har qachongidan ko‘ra yaxshilagani muvaffaqiyatlar omili bo‘layotir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Vatanimizda amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati hamda oqilona islohotlar hisobiga yurtimizda barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlanishiga erishilayotir. Bir misol keltira qolaylik. Keyingi yillarda O‘zbekiston va Qozog‘iston savdo aylanmasi o‘n milliard dollarga yetishi ko‘zda tutilgani ham Vatanimizning istiqboldagi rejalari, iqtisodiy aloqalar chakki emasligidan dalolat beradi.

Ey yurakning payg‘ambari, jonim Vatan,
Senga ummat bo‘lmoq oliy imkondir bu,
Axir sendek Vatan yo‘qdir hech Vatanda,
Tangri bergan menga mulki Sultondir bu.

Iste’dodli shoira Zebo Mirzo Vatan qadri, uning shon-sharafi hamda jahonda tengsiz xilqat ekanini ana shunday madh etadi.

Yurtimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy-madaniy sohalarda qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar ham salmoqli bo‘ldi. Fan, madaniyat, sport, adabiyot va san’at rivoj topdi. Vatanimizda davlat rahbarining tashabbusi bilan turkiy davlatlar adabiyotiga doir yuz tomlik asarlar ko‘p nusxada chop etilgani ham qardosh xalqlar madaniy va adabiy hayotida muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonda davlat rahbari Serdar Berdimuhamedovga Maxtumquli, Tojikistonda yurt peshvosi Emomali Rahmonga Abdurahmon Jomiy kitobini tuhfa etgani va boshqa o‘nlab misollar davlat rahbarlarining ma’naviyatga, kitobga bo‘lgan e’tibori hamda qiziqishi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Jonajon Vatanimiz shuhrati butun dunyoga yoyilishiga imkon yaratayotgan sohalardan biri, shubhasiz, sportdir. Parijdagi Olimpiadada o‘nlab oltin, kumush va bronza medallarga sazovor bo‘lganlar soni jihatidan Markaziy Osiyoda yetakchilik qilgan O‘zbekiston dovrug‘i olis-olislarga yetdi. Diyora Keldiyorova, Hasanboy Do‘smatov, Bahodir Jalolovlar Vatanimizda sportning rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Ular xalqaro musobaqalarda hamisha yuqori o‘rinlarni egallab, o‘zbek millati dovrug‘i oshishiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Xalqim, duolaring ijobat doim,
Boshingdan ketmagay xurshidi iqbol.
Ruh obod, tuproqqa aylanadi tan,
Vatan boqiy erur, azizdir Vatan!

Darhaqiqat, Vatanga mehr-u muhabbatimizni ana shunday izhor etishimiz, uning shon-u shavkatini yanada ko‘tarishga hissa qo‘shishimiz zarur.

Vatanni sevish degani quruq madh etish-u uning sha’niga balandparvoz so‘zlarni yog‘dirishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir inson Vatan ravnaqiga amaliy ishlari bilan hissa qo‘shishi, tajriba va mahoratini, bilim va kuch-quvvatini yurt taraqqiyoti yo‘lida sarf etmog‘i lozim. Bugungi zamondoshimiz menga Vatan nima berdi emas, men yurtim rivoji yo‘lida nima ish qildim, deya hisob berishi darkor.

Jovli XUSHBOQOV,
O‘zA muxbiri

Aslahalar

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida o‘sha davr harbiylari foydalangan qurol-yarog‘lar to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Bu asarning ahamiyati shundaki, muallif o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni tasvirlaydi. Unda harbiylar qanday qurollardan foydalangan, keyingi davrda ularda qanday o‘zgarishlar yuz berganini ko‘ramiz. Shuningdek, ba’zi qurollarning kelib chiqishi turkiylarga xos ekani ochib berilgan. Quyidagi ma’lumotlar o‘zbek davlatchiligida hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasi jangchilari haqida birmuncha tasavvur uyg‘otadi.

HARBIY QUROL-YAROG‘LAR



QUROL. “Devonu lug‘oti-t-turk”da qurol bilan bog‘liq atamalar bir necha bor tilga olingan. Ularni tahlil qilib, o‘sha davrda qurol-yarog‘lar qanday bo‘lganini tasavvur qilishimiz mumkin. Asarda keltirilgan “tulum” atamasi umumiy qurol ma’nosini anglatadi. Shu bilan birga u jang kiyimi ma’nosini bildirgan. Yana bu atamaga oid bir nechta variantlar berilgan. “Tulumlandi” – jang kiyimlarini, yarog‘larini kiydi. “Er tulumlandi” – odam urush yarog‘larini taqdi, qurollandi. “Ol yag‘iyga tulum anutdu” – u dushmanga qarshi qurol hozirladi. “Dushmanga qarshi qurol hozirlagan kishi toy topadi. Qurol hozirlashni unutgan kishi asir bo‘ladi”. “Tulumlug‘ er” – boshdan oyoq qurollangan kishi. O‘sha davrning boshqa manbasi “Qutadg‘u bilig”da ham “tulum” qurol ma’nosida ishlatiladi.

Yana bir e’tiborli tomoni shundaki, turk xoqonlari o‘z qo‘shinlarini eng yaxshi jihozlar bilan qurollantirgan va Xitoy hujjatlarida “bo‘rular” deb atalgan zarba beruvchi zirhli otliq qo‘shinlarga ega bo‘lgani keltirilgan.

O‘Q. Turklar o‘qlardan asosan uzoq masofali urushlarda yoki taktik chekinishlarda foydalangan. Xitoy manbalarida yozilishicha, “Turklar urushlarda uzoq masofadan otishda, qochib ketishda, orqaga chekinishda ham kamon o‘qlaridan foydalangan. Bu usul ularning jangovar tartibi bilan chambarchas bog‘liq edi. Ular bu soxta chekinishlar bilan o‘z raqiblarini aldab, dushman kuchlarini toliqtirishga harakat qilgan. 9-yuzyillikda arab tarixchilaridan bo‘lgan al-Johiz o‘z asarida “Turklar dushmanga duch kelganda dastlab chekinadi, lekin ko‘p marta qaytib kelishadi. Ular otda turib, oldinga ham orqaga birdek o‘q uza olishini ta’kidlab o‘tgan edi. Turklarning yoy otishdagi mahoratini vizantiyalik tarixchi Niketas ham tasdiqlaydi. Eng yaxshi o‘qlar Maqdisiy bergan ma’lumotga qaraganda Choch shahrida tayyorlangan.

O‘qlar qayin yog‘ochidan yasalgan, unga bashak deb ataladigan temir uch o‘rnatilgan. Urushdan oldingi tayyorgarlikda esa uchiga dumaloq yog‘och yopishtirilgan mashg‘ulot o‘qi “kalva” ishlatilgan.

O‘q va yoy. Muallifning yozishicha “chig‘ilvar” deb nomlangan kalta o‘q ham bo‘lgan. Ular qisqa masofada tezkorlik bilan jang qilishga mo‘ljallangan. “Churam” deb esa uzoq masofaga otish uchun chalqancha yotib otilgan o‘qqa aytilgan. O‘q va kamon saqlanadigan idishlarning nomlari turk qabilalariga qarab farqlangan.

O‘q va kamon qadimgi davrlarda barcha jamoalarda ov quroli sifatida qaralgan. Dubulg‘a kiyib, kamon va o‘qlar bilan qurollangan, jangovar otlarda tez harakat qilgan turklarni yengish mushkul bo‘lgan.

Ularning uzoqdan va tez otadigan o‘qlari bo‘lib, hatto uni kim va qayerdan otganini bilmay ham qolgan. Bu o‘qlarni “azuq o‘q”, deb ataganlar.

KAMON. “Devonu lug‘oti-t-turk”da kamon haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Masalan, yog‘ochdan yasalgan qurol “yatan” deb nomlangan. Bu qurolning o‘qi oddiy kamon o‘qlaridan biroz kichikroq bo‘lib, asosan tor va kichik joylarda jang qilishga mo‘ljallangan. U yog‘och dastaga ega bo‘lib, turli xalqlarda turlicha nomlangan. Eloqxoniylar sulolasi davrida harbiylari “tir-i charx” deb atalgan yog‘och dastali kamondan foydalangan. Bunday qurollar nasroniylarning salib yurishlari natijasida Yevropaga tarqalib, arbalet nomini oladi.

QILICH. “Devonu lug‘oti-t-turk”da, “Qush qilich qinga sig‘mas” maqoli keltirilgan. Ya’ni bunda bir joyga ikki hukmdor bo‘lmasligiga urg‘u beriladi. Hukmdorlar so‘zi qilichdek o‘tkir bo‘lgani uchun qilichxon deyilishi kelib chiqqan. Shuningdek, qilichga oltin suvi bilan ishlov berilgan. Qilich ham askarni mavqeini ko‘rsatib bergan. “Devon”dan olingan ma’lumotlarga asoslanib, qilich dastasini tog‘ echkisining shoxidan qilingani lashkarboshilarga tegishli bo‘lgan. Qamchini urush qurollari qatoriga kiritishimga sabab turklar uni “o‘ldiruvchi vosita” deb bilishgan va ba’zi hollarda undan foydalangan.

XANJAR. Turklar tomonidan urush quroli sifatida qo‘llaniladigan pichoqning yanada ixtisoslashgan shakli xanjar deb ataladi. Xanjar o‘rtacha 30-35 sm bo‘lgan. Bu pichoqning bir turi bo‘lib, uchi uzun, qo‘sh yoki bir tig‘li bo‘lib, to‘g‘ri va egri bo‘lgan. U turklar tomonidan qo‘llanilgan jangovar yoki hujum qurollari orasida sanab o‘tiladigan o‘q, qilich, nayza va bolta kabi muhim bo‘lmasa-da, odatda qo‘ljangida ahamiyati katta bo‘lgan. Turkiylarda yaqin masofadan yoki yakkama-yakka jang qilayotganda xanjardan foydalangan. Har bir askar o‘zining xanjariga ega bo‘lishi tabiiy hol bo‘lgan. Asarda xanjar “bukta”, “bugda“ shaklida uchraydi.

NAYZA. Qadim zamonlardan beri deyarli barcha turk qabilalari tomonidan qo‘llanilgan nayza “Devon”da sungu kesma va “Qutadg‘u bilig”da sunun shaklida berilgan.

Arab tarixchisi Al-Jahiz ham o‘z asarida turklar nayzadan jangda ko‘p foydalanishi, ularning taktikasi boshqalardan farq qilishini yozib o‘tgan.

“Devonu lug‘oti-t-turk”da muallif o‘zini usta nayzador, deb ijtimoiy kelib chiqishi haqida yozadi. Demak, o‘sha vaqtlarda nayzador bo‘lish yuqori qatlam hisoblangan. Shu bilan birga, biror narsani uzunligini o‘lchash uchun ham “bir sungi turqi” – bir nayza uzunligi iborasi ishlatilgan.

Nayza uchidagi temir – bashaq, tishli nayza – bashaqli nayza iboralari berilgan. Nayza bilan jang qilish asarda “sunish” tarzida berilgan. O‘sha vaqtda bek o‘zi ishongan askariga nayza berar ekan u bundan buyon bekning xizmatida ekanini bildirilgan. Bek nayzasini olgan askar unga sadoqat bilan xizmat qilgan.

“Devonu lug‘oti-t-turk”da qo‘shinni yenggan bir odamni ta’riflab aytadi: “u unga yetib oldi, nayza sanchdi, bitgan yarasini yana yangiladi, talagan mollaridan odamlarga berdi” yoki shoir dushmanni tavsiflab aytadi: “biz shovqin-suron bilan dushman ustiga hujum qilamiz, qalqon va nayza bilan zarba beramiz, uramiz, uchrashish holatida qattiqlik ko‘rsatamiz, keyin yarashish so‘ralsa, to‘xtaymiz. Shunday qilsak, qattiq dushman yumshaydi”, kabi ma’lumotlarda nayza harbiylarning asosiy qurollaridan biri bo‘lgani anglashiladi. Jang kuni nayzaning boshiga arqon solinadi va jangchi u bilan o‘zini tanitadi*(batrak)*. Uchiga ipak bo‘lagi yopishtirilgan nayza “batrak, bayroq” deb atalgan. Urushda nayza va bayroqlarning uchiga ipak bog‘lanib, “tanguk” deb atalgan.

BOLTA. Qoraxoniy askarlarining jangovar qurollaridan biri bo‘lgan va daraxt chopishda ham qo‘llanilgan “baldu” bugungi kunda bolta deb nomlanadi. Yusuf Xos Hojibning qaydlaridan ma’lum bo‘lishicha, baldu qoraxoniylar davrida qilich, o‘q, yoy kabi askarlar tomonidan tez-tez ishlatib turilgan urush quroli bo‘lgan.

TOSH. Shuningdek, turklar janglarda tosh otadigan moslamalardan ham keng foydalangan. Bu to‘g‘risida “Devonu lug‘oti-t-turk”da ayrim jumlalar uchraydi. Mayda tosh otadigan sopqon – “sangu” atamasi bilan kelgan. Uning yasalishi haqida ta’riflab “tuvvak – tol daraxtining va umuman ho‘l shoxlarning po‘stlog‘ini yormay, shox novdadan sug‘urib olinadi va uchiga g‘ulakchalar qo‘yib, chumchuqlarni otadi. Yog‘ochning uchini kovak qilib ham tuppak yasaladi”. Otiladigan tosh yoki mayda temir “kerju” deb atalgan.

QALQON, ZIRH. Urushda qilich, o‘q, kamon va boshqa qurollar qatori hujumlardan saqlanishda foydalanadigan qurollardan biri “qalqon” hisoblangan. Dushmandan himoyalanish uchun yopinchiq o‘rnida qo‘llanadigan qalqon “tura qalqon” deb ataladi. Darhaqiqat, “Devonu lug‘oti-t-turk”da “er qalqan bilan yapindi”, ya’ni “odam qalqon bilan yashirindi”, deyilgan. Shuningdek, askarlarning sovuti, zirhi “yoriq” deyilgan. Yoriq temirdan yasalgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham zirh ham qalqon ma’nosini anglatgani uchun ularni farqlash uchun zirhga nisbatan “kub yoriq”, qalqonga nisbatan esa “soy yoriq” deyilgan.

DUBULG‘A. 11-yuzyillikda urushlarda askarlarning boshini himoya qiladigan bosh kiyimi dubulg‘a deyilgan. Dubulg‘alar shakli va kattaligiga qarab, oddiy askarlar va zodagonlar dubulg‘alariga ajralgan. “Devon”da boshni himoya qiladigan bosh kiyim “ashuq” va “yishiqliq” deyilgan. “Keduk” deb nomlangan dubulg‘a ostida kiyiladigan bosh kiyim ham bo‘lgan. Bundan askarlar dubulg‘aning og‘irligi va sovuqligini his qilmasliklari ko‘zlangan.

Sarvar QO‘LDOSHEV,
Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti





JISMONIY QOBILIYAT JANGOVAR

Jismonan chiniqqan, keng dunyoqarashga ega, o‘z kasbiga oid bilimlarni mukammal egallagan shaxsiy tarkib har qanday armiyaning jangovar qudratini oshirishi shubhasiz. Milliy armiyamiz uchun turli yo‘nalishdagi mutaxassislarni tayyorlab beruvchi Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti ana shunday jihatlar bilan mamlakatimizdagi yetakchi oliy harbiy ta’lim maskanlaridan biri ekanini uzoq yillardan buyon amalda isbotlab kelmoqda.



Bilim yurti o‘quv bazasida bo‘lg‘usi ofitserlar milliy g‘oya – O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, xizmat faoliyatini axloqiy-ruhiy kuzatib borish metodologiyasi, xorijiy til, otish va artilleriya o‘tini boshqarish, zenit komplekslarining tuzilishi hamda ishlatilishi, tank, raketa, artilleriya qurollari taktikasi hamda jismoniy tayyorgarlik fanlari bo‘yicha tahsil oladi. Ta’lim maskanida o‘tiladigan fanlar bo‘yicha har bir kafedra o‘z o‘rniga ega. Kursantlar shaxsiy tarkibining jismonan chiniqishi, ma’nan yetuk bo‘lishi, o‘z kasbiga oid bilimlarni mukammal egallashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi ham bu borada o‘z o‘rniga ega.

Shaxsiy tarkibi 14 nafar *(13 nafar harbiy xizmatchi va 1 nafar Qurolli Kuchlar xizmatchisi)* mutaxassisdan iborat bo‘lgan Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi ta’lim jarayoni davomida harbiy xizmatchilarning jangovar salohiyatini ta’minlab berish imkoniyatiga ega. Shaxsiy tarkibning to‘qqiz nafari professor-o‘qituvchi, uch nafari esa malakali sport yo‘riqchisidir. Bugungi kunda kafedrada 4 ta sport ustasi, 5 ta sport ustaligiga nomzod murabbiy faoliyat olib bormoqda. Ularning murabbiyligi ostida tosh ko‘tarish, armiya biatloni, kurash, ko‘pkurash, boks, dzyudo, qo‘ljangi va yengil atletika to‘garaklarida 250 dan ortiq kursant, harbiy xizmatchilarning farzandlari va mahalliy yoshlar shug‘ullanib kelyapti. Kursantlarda yuqori jangovar, axloqiy-ruhiy va vatanparvarlik sifatlarining shakllanishida jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarining qanchalik muhimligini birgina faktda keltirish kifoya. Boshqa oliy harbiy ta’lim muassasalari qatori Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga kirish uchun, albatta jismoniy tarbiyadan ham imtihon topshiriladi. Kirish imtihonida yigitlar tomonidan ko‘rsatilgan jismoniy qobiliyat o‘quv dasturiga binoan yil davomida 120 soat jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari bilan mustahkamlanib boriladi.

Har hafta davomida “Chirchiq” umumqo‘shin poligonidagi o‘quv nuqtalarida ham jangovar va jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini birgalikda o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan. O‘quv nuqtalarida armiya biatloni, turli to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish, besh va o‘n kilometrlik masofaga qurol-aslahalar bilan yugurish mashqlarini ham qo‘shib hisoblaydigan bo‘lsak, kursantlarning ofitserlik faoliyatini boshlashdan oldin qay darajada jismoniy chiniqishini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, turli musobaqalarda qatnashish tajribasi haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Kursantlar va kafedrada faoliyat olib borayotgan murabbiylar “Dovyurak jangchi”, “Armiya biatloni”, Mudofaa vazirligi kubogi, kuch tuzilmalari o‘rtasidagi musobaqalar hamda O‘zbekiston chempionatlarida bilim yurti sharafini munosib himoya qilib kelmoqda. Kafedra o‘qituvchisi podpolkovnik Bahrom Mirzaakbarov pichoq uloqtirish bo‘yicha





SALOHIYAT DEMAKDIR







kuch tuzilmalari o‘rtasidagi chempionat g‘olibi, Osiyo va O‘zbekiston chempionati sovrindori. Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti jamoasi esa MDH oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari o‘rtasida o‘tkazilgan kasbiy tayyorgarlik musobaqasida 1-o‘rinni egallagani shular jumlasidandir. Shuningdek, boks to‘garagi a’zosi, 15 yoshli maktab o‘quvchisi Hamira Turg‘unova yaqinda O‘zbekiston chempionligini qo‘lga kiritdi.

Podpolkovniklar – Aziz Haydarov, Bahrom Mirzaakbarov, Faxriddin Husanov, mayor Shohrux Abdumutalov, kapitan Doston To‘qliboyev, katta serjant Bobur Abdullayev kabi ustozlarining “Dovyurak jangchi” musobaqasida erishgan natijasi kursantlarda yuqori jangovar, axloqiy-ruhiy va vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishda namuna bo‘la oladi. Bu orqali ular kelajakda o‘z bo‘linmalarini mahorat bilan boshqarish, murakkab jangovar vaziyatlarda tez va eng ma’qul qarorlar qabul qilish, shaxsiy tarkib bilan jangovar hamda maxsus tayyorgarliklar bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkillashtirish va o‘tkazish kabi muhim jihatlarni bosqichma-bosqich mustahkamlab borishadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti Jismoniy tarbiya kafedrasi bazasidagi stadionlar, boks, kurash va trenajyor zallari, majmuaviy mashqlar o‘tash maydonlari sog‘lom turmush tarziga oshno tutinganlarning sevimli maskani. Bu yerda turli miqyosdagi musobaqalar g‘oliblari bilan birga, milliy armiyamiz safida sharafli burchini o‘taydigan jismoniy qobiliyati va jangovar salohiyati yuqori ofitserlar yetishib chiqadi.

– Yoshligimdan sportga qiziqishim, aniq fanlarni puxta o‘rganishim natijasida egnimga kursantlik libosini kiyish baxtiga muyassar bo‘ldim, – deydi 4-bosqich kursanti Elbek Bozorov. – Bilim yurtida jismoniy tayyorgarlik saboqlaridan tashqari, kurash, qo‘ljangi va boks to‘garagidagi mashg‘ulotlarda ham qatnashib turaman. Bugun guruhimiz bilan o‘quv dasturiga asosan 100 va 3 000 metr masofaga yugurish, turnikda tortilish bo‘yicha belgilangan me’yorlarni topshirdik. Natijalar yomon bo‘lmadi. Tez orada kursantlik davrim ofitserlik bilan almashadi. Ana o‘shanda ustozlardan olgan bilim va ko‘nikmalarimni amalda namoyon eta olishimga ishonaman.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

“UR TO‘QMOQ”QA AYLAN, TILIM!”

Inson uchun tug‘ilgan tuprog‘i, uni dunyoga keltirgan ota-onasi, qaddini tik tutib turgan jonidek aziz yana bir narsasi bor, bu uning ona tilidir. Ona tili millatning sharafidir. Tafti qalbimizni nurlantirib, tasviri yuragimizni bezab, salobati jism-u jonimizga o‘ktamlik baxsh etib turadi. Ona tili unutilgan kun yo‘qlikka aylanamiz...

* * *

Bir kuni ijtimoiy tarmoqda qardosh qozoq birodarlarimizning o‘z ona tili borasida muhokamalarini o‘qib qoldim. Qisqa muddatda ushbu bahsdagi ishtirokchilar soni keskin ortib ketdi. To‘g‘ri-da, til – millatning sha’ni, g‘ururi. Qardoshlarimizning o‘zligiga, tiliga, kelajagiga e’tiborsiz emasliklari, rosti, meni hayratlantirdi. Izohlar orasida oddiy bir insonning iqrori xotiramga muhrlanib qoldi:

“Dunyoning eng go‘zal tili fransuz tili emas, aksincha qozoq tili. Bunga shubha bilan qaraganlar qozoq onasining allasini tinglab ko‘rsin!”

Mana eng oddiy, ammo eng yuksak baho!

O‘zbek tili ham biz uchun shunday aziz. Oltin-u javohirga ham g‘ubor qo‘nsa, yaltirab jilo bermaydi. Biz ona tilimizni mehrimiz, muhabbatimiz bilan kir-u g‘uborlardan tozalab, jilolantirib turamiz.

* * *

Afg‘onistonlik bir guruh o‘zbeklarning yurtimizga qilgan safarida hamrohlik qildim. Ular orasida turli soha vakillari, jumladan shoir va yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar ham bor edi. Millatdoshlarning ona tilida go‘zal takallufi qulog‘ingizga moyday quyilib, dilingiz yayraydi. Biz gap orasida ba’zan ruscha so‘zlarni qo‘shib yuborsak, mehmonlarning biroz g‘ashi keladi. O‘zbek tilini shunchalik himoya qiladiki, so‘zimizni to‘g‘rilab qo‘yishdan erinmaydi.

– Bu sizning aybingiz emas, bir paytlar o‘zbek tili grammatikasini ham o‘ruslar tuzib bergan-da, – deb qo‘yadi kesatgannamo Al-Farob universiteti o‘qituvchisi Toshqin Bahoiy. – Turkcha deb forslarning o‘zi tan olib turgan so‘zlarni “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da forsiy deb berganlariga hayron qolaman. Bu tilni talon-toroj qilish emasmi?! Masalan, qizil rangni ifoda etuvchi sof turkcha “qirmiz” so‘zini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” mualliflari forsiyga bag‘ishlaganlar, vaholanki, forsiyda “q” tovushi bilan tuzilgan so‘zning o‘zi yo‘q. Lug‘atda “ostona” so‘zining ham o‘zagini forsiy deb ko‘rsatganlar. “Oston” sof turkiy so‘z hisoblanib, qo‘shma so‘zdan iborat. Ost – quyi ma’nosini beradi. Aksincha, “bo‘sag‘a” so‘zini turkiy so‘z deb ataganlar. “Bo‘sag‘a” forsiy so‘z hisoblanib, uning o‘zagi – “bo‘sagoh” *(shohlar huzuriga borilganda o‘piladigan yer)*. “Badarg‘a” – tuzilishi va shaklidan o‘zbekcha so‘z ekani ko‘rinib turibdi. Ushbu so‘zni forslarga taqdim qilishga qani hujjat? “Badarg‘a” forsiy so‘z ekani hech bir qomusda berilmagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zni forsiy deyishga nimani asos qilishgan, bilmadim?!

Til haqida gapirsa, bir buyuk qudrat haqida so‘z ketayotganini uqib, hayajon bilan aytadi. Millatni himoya qilish, asrab-avaylash, urf-odat, an’analarga sodiq qolish, o‘zlikni saqlash til qo‘rg‘onini mustahkamlashdan boshlanadi. Til – bu millatning maqomini belgilaydi, deb tushunadi.

Ular kurashib o‘rgangan xalq. Boshqa millatlar, boshqa tilda so‘zlashuvchilar o‘zbek tilining bog‘ini gurkiratib kelyapti. Mana – bu jasorat! Bu yildan Afg‘onistonda O‘zbek tili kuni davlat bayramlari qatoriga kiritilib, endi har yili keng nishonlanadigan bo‘libdi. Ular bunga oson erishmadi: turtilib, yiqilib, nihoyat, zafar quchdi. Bu haqda maqtanib gapirganida, go‘yo lablari emas, ko‘zlari, ko‘zlari qa’ridan yuragi so‘zlaydi.

* * *

Xalqimizning to‘ylari qiziq, talato‘p bilan o‘tadi. Kallayi saharlab o‘choqqa o‘t qalanadi. Bu jarayonda oshpazlar bilan birga ko‘pni ko‘rgan mahalla faollari ham ishtirok etadi. To‘yning eng sokin paytida gurung qiziydi. Bir gal do‘stim boshlagan marosimning shunday ajib pallasida davraga qo‘shilib qoldim. Suhbat mavzulari almashib qurilishga, arxitekturaga – tarixiy obidalarimizga o‘tdi. Qadimdan qishlog‘imizda uylarning joylashuvi, shakli, qurilish ashyolari ham qolmadi: eshik-deraza, oshiq-moshiq...

Ko‘p yillar qishloq maktabida o‘qituvchilik qilgan, nafaqada ham qishloqdoshlar ishonchini oqlab, oqsoqollik qilib yurgan Hasan muallim so‘z ochib qoldi:

– Sizlar aytadigan “oshiq-moshiq”ning asl turkcha nomi bor, bilasizlarmi? – Hamma yelka qisdi. Muallim davraga bir ko‘z yugurtirib, gapida davom etdi. – Turum! Yaqingachayam shunday darvoza-eshiklar bo‘lardi, tepa va quyi qismidagi yog‘och o‘yilib, to‘qmoqdek tiqib qo‘yilgan, bu eshik-derazalarning ochib yopilishini ta’minlaydi.

“Turum” so‘zini hozir ham ishlatamiz, asl ma’nosida emas, ko‘chma ma’noda. O‘z so‘zida, lafzida turmaydigan kishilarga “falonchining turumi yo‘q ekan” deb nisbat beramiz. Biz bo‘lsa, turumni “oshiq-moshiq”qa, buniyam qo‘yaturaylik, o‘rischa “chasvok”ka almashtirib olganmiz...

Shunday chiroyli so‘zimiz ona tilimizdan tushib qolayotgani achinarli. Ehhe, bu kabi so‘zlar qancha?!

“Kavkaz asirasi yoki Shurikning yangi sarguzashtlari” filmida bosh qahramon Shurik ta’tildan foydalanib, xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ish uchun olis qishloqqa boradi. Bu voqea bejiz yaralmagan, bir paytlar folklorshunoslar, tilshunoslar qishloqma-qishloq, ovulma-ovul kezib yurgan. O‘sha manzil-u go‘shalarning tuprog‘idek qadimiy keksa bobo-momolar bilan suhbatlashib, xalq tilidan so‘z yig‘gan. Rus tili yoki boshqa ajnabiy tillardan so‘zni osongina o‘zlashtirib olmagan. Davrlar o‘zgaryapti, avlodlar almashyapti, jadallikka mahkum dunyoda tahdidlar ortyapti, tillar, so‘zlar, atamalar, terminlar shaklida tilimizni yemiryapti. Bugun uning qaddini rostlab qo‘ymasak, keyin kech bo‘ladi, nazarimda. Tilimizning lug‘atini o‘z xazinamiz bilan boyitish maqsadida yuqoridagi kabi sayohat-tadqiqotlarni bugun ham tashkil etish o‘rinli bo‘lar edi, deb o‘ylayman.

* * *

– Shoir, internetda til haqidagi tortishuvlarni ko‘ryapsizmi, – deb qoldi poyezd kuzatuvchisi bo‘lib ishlaydigan tanishim. – Biror narsa qoralamaysizmi?

– Ha, ko‘rib boryapman. O‘ylab yuribman, nimadir yozaman deb.

– Yozing, hammasini aytib tashlang! – Yuziga qizillik yugurib ketdi. – Bolasini o‘ris maktabga yetaklab borib, o‘zbekchada yaxshi bilim ololmaydi, deb o‘ziga, millatiga tosh otib yurganlarini ayting...

Adliya vazirligi davlat tilida ish yuritishni ta’minlamagan mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni ko‘zda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqib, jamoatchilikka e’lon qildi-yu, yurtdoshlarimiz orasida katta muhokamalarga sabab bo‘ldi. Dolzarb mavzu atrofidagi bahs-munozaralar toshqini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan toshib, ijtimoiy tarmoqlarda ham uchqun berdi.

Ushbu qonun bilan “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksning 42-moddasi ikkinchi qism bilan quyidagicha to‘ldiriladi:

“Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi”.

Albatta, bu rusiyzabon millatdoshlarimizni cho‘chitib yubordi. Ona so‘zini ham bolasiga “mama” deb o‘rgatadigan *(shunday bo‘lgandan keyin qanday qilib ona tilini hurmat qiladi)* va buni madaniy hayoti darajasini yuksak ko‘rsatadi, deb tushunadigan ayrim kishilar ma’qul topmadi. Sohalarda yaxshi kadrlarni boy berish, rivojlanishning yo‘lini to‘sish, millatchilik qilish vajlarini keltirib, tish-tirnog‘i bilan qarshiligini namoyon etdi. Albatta, qonun loyihasini ma’qullagan millatparvar ziyolilarimiz, yurtdoshlarimiz ko‘pchilikni tashkil etdi *(afsuski, ularning ham aksariyati farzandlarini rus tilli maktablarda o‘qitishni ma’qul ko‘radi)*.

Mamlakatimizda ham bir qancha davlatlarning madaniyat oshyonlari o‘z tillari va madaniyatini targ‘ib etish bo‘yicha faoliyat yuritadi. Maqsad, sarhadlaridan ortib, tilini, urf-odat va an’analarini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini keng quloch ottirib, ildizini zamin uzra yoyishdir.

Til – nomus, til – o‘zlik. O‘zligini unutgan millat o‘zga millatlarga ergashishga moyil bo‘ladi. Faqatgina moyil bo‘lmaydi, o‘zganing qo‘njida kun ko‘rishga majbur bo‘ladi. O‘zbek tili faqat O‘zbekistondagi o‘zbeklarning tili emas, balki dunyo o‘zbeklarining ham ona tilidir. Afg‘onistonlik turkshunos Hamid Todoshning yozg‘irib aytgan gapi hech yodimdan chiqmaydi: “Ta’lim forscha, o‘zaro muomala-munosabat forscha, Afg‘onistonda qancha-qancha o‘zbek qishloqlari forslashib, forscha tutum va udumlarga ergashyapti. Ular yaqin yillarda o‘tmishi, tilini unutib yuboradi”.

Bundan kelib chiqadiki, biz o‘z Vatanimizda ona tilimizga haminqadar munosabatda bo‘lsak, uning qadr-qimmatini qalbimizda, hayotimizda mustahkamlamasak, xazinamizni boy berayotgan bo‘lamiz.

Davlat til narvonini qancha mustahkam va baland qo‘ysa, mamlakat shuncha yuksaladi, dunyoda dovruq topadi. Rasmiy hujjatlar – qonunlar, farmon-u qarorlar, xatlar o‘zbekona qarash, fikr chorlovi, boy tafakkur bilan o‘zbek tilida yozilishi, idora qilinishi joiz. Zarur hollarda boshqa tillarda tarjima qilish o‘rinlidir.

Ayrim vazirlik va idoralarda, yirik davlat tashkilotlarida hujjat ishlarini yuritish rus tilida yozilib, keyin o‘zbek tiliga o‘giriladi. Qarabsizki, jumlaning boshi yo ildizini topolmay, mag‘zini chaqolmay dilingiz xufton, ta’bingiz tirriq bo‘ladi.

Yana bir gap. O‘zimizning tadbirkorlar tashkil etgan, asosan o‘zbeklar ishlaydigan xususiy kompaniyalar idoralarida bo‘lib qolsangiz, o‘zingizni butunlay boshqa mamlakatdagidek his etasiz: muomala-munosabatdan tortib, hujjat yuritishgacha barchasi rus tilida. Ular bergan e’lon va reklamalar, shartnoma matnlari ham ajnabiycha – yo ruscha, yo inglizcha.

Masalan, avtomashina yoki uy olmoqchi bo‘lsangiz, qo‘lingizga rus tilida yozilgan shartnoma tutqazadi. Unda esa tomonlarning huquq va majburiyatlari, eng asosiy jihatlar yozilgan bo‘ladi. Ertaga bir kelishmovchilik bo‘lsa, “shartnomada yozilgan-ku” deb kaltak o‘zbekning boshida sinadi. Bog‘ qilib, chorva haydab, dalada mehnat qilib, yaxshi niyat bilan ulov sotib oluvchi o‘zbek ruschani tushunmagan bo‘ladi.

Bu qanaqasi?! Axir O‘zbekistonda davlat tili o‘zbek tili bo‘lsa! Aholining 90 foizi o‘zbeklar bo‘lsa! Mijozlar yoki mahsulot iste’molchilarining ham katta qismi, tabiiyki, o‘zbeklar. Biznes, avvalo, ana shu aholiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mansabdor shaxslar elning yetakchilari bo‘lib, buni his etishlari lozim. Inchunin, ma’murlarimiz mas’uliyatini anglamas ekanlar, javobgarlikni his etlishlari kerak.

Daraxt ham qay diyorda unib-o‘ssa, o‘sha xalq, o‘sha millat tilida shivirlaydi. Demak, tilimizning qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo‘yish vaqti keldi...

Bola qalbimizni yashnatgan “Ur to‘qmoq” ertagi ham o‘zbek xalqining, o‘zbek tilining mahsuli. Aytmoqchimanki, zarur bo‘lsa, “Ur to‘qmoq”qa aylan, tilim!

Faxriddin HAYIT,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDONA TAFAKKUR



Tarix o‘zbek xalqining hozirgi avlodi zimmasiga g‘oyat buyuk, muqaddas vazifani yukladi. Bu Vatanni Vatan qilish, uning dovrug‘ini olam uzra yoyish, kuchiga kuch, shuhratiga shuhrat qo‘shishdir. Millatning yetukligi, shaxsning ma’naviy kamoloti o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbati, hurmati, samimiyati, mehr-oqibati bilan belgilanadi. Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat odamning qoniga ona suti bilan kiradi. Bu muqaddas tuyg‘uni ona allasi parvarish qiladi, ota tarbiyasi va namunasi ulg‘aytiradi.

Kindik qoni tomgan ona Vatanning tarixini, tarixiy taraqqiyot yo‘lini bilmagan, uning bilan faxrlanmaydigan kishini madaniyatli inson, haqiqiy vatanparvar deb bo‘lmaydi. O‘z tarixiga bo‘lgan hurmat bu, eng avvalo, xalqiga, ajdodlariga bo‘lgan e’tibor demakdir. O‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo‘lmaydi.

Yoshlarimizni mamlakat ravnaqi yo‘lida birlashtirish, qalblarini uyg‘otish, dunyo xaritasida har tomonlama rivoj topgan Yangi O‘zbekistonni barpo etishni ko‘zlagan Uchinchi Renessans g‘oyasining ildizi aslida ma’rifatparvar jadidlar faoliyatiga borib taqaladi.

Ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari – Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lpon ijodi va faoliyatini bilish hozirgi yoshlarimiz uchun ahamiyatli.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ma’rifatparvarlarning aksar qismi o‘tgan asr boshlarida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borib, barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan muammolarga ham e’tibor qaratgan. Til va yozuv, maktab hamda o‘qish-o‘qitishni isloh qilish, tarixni o‘rganish, oila va nikoh, milliy qadriyatlarni o‘rganish hamda asrab-avaylash, milliy davlatchilikni shakllantirishga munosabat kabilar jadidlarni o‘ylantirgan asosiy masalalar bo‘lgan.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat faoliyati doirasi keng – shoir va olim, noshir, pedagog, sayyoh va din-shariat arbobi, milliy uyg‘onish davrining mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatiga, uning istiqloliga bag‘ishlagan. U olim sifatida zamondoshlarini, ayniqsa yoshlarni ilm-fandan, ilg‘or madaniyatdan yangicha ta’lim-tarbiya tizimidan ibrat olishga da’vat etgan.

Is’hoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilan cheklanib qolmagan, o‘qish davomida buyuk Sharq mutafakkirlarining asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan o‘rgangan, arab, fors va rus tillarini bilgan. Uning til o‘rganishga qobiliyati kuchli bo‘lgan.

Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U pedagogika, jurnalistika, matbaachilik, noshirlik, siyosat, tijorat va boshqa qator ishlar bilan shug‘ullangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-umidlaridan biri sifatida maydonga kelgan. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi bo‘lgan. Behbudiy qalbini o‘rtagan eng katta dard – erk va ma’rifat bo‘lgan, buni u quyidagi hikmatli so‘zlarida aniq yoritgan: *“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir-u zalolat va xo‘rliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir”*.

Abdulla Avloniy – milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yirik vakili bo‘lgan. Bu davr adabiyotining biror bir qirrasi yo‘qki, Avloniy ijodida bo‘y ko‘rsatmagan bo‘lsa: millatni uyg‘otishga va milliy ozodlikka chaqiruvchi she’rlarini deysizmi, teatr sohasidagi faoliyatini hamda dramatik asarlarini sanaysizmi, yangi avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan pedagogik asarlarini aytasizmi, milliy matbuotni oyoqqa turg‘izishdagi sa’y-harakatlari yoxud shu matbuot sahifalarida bosilgan publitsistik maqolalarini olasizmi – bularning barchasi bizga Abdulla Avloniy shaxsiyatini millat taraqqiyoti yo‘lida fidoyilarcha xizmat qilgan ulkan mutafakkir sifatida namoyon etadi.

Abdulla Avloniyning: *“Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go‘zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi? – degan savol keladi. Bu savolga: birinchi – uy tarbiyasi, bu ona vazifasi. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasi...*

Xulosa shuki, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi”, hikmatli so‘zlari hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Abdurauf Fitrat o‘z davrining ochiq fikrli yoshlaridan biri bo‘lgan, bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillardan hisoblangan. U deyarli 17 yoshidan boshlab, avvaliga diniy, so‘ngra badiiy ijod va ilmiy tadqiqot ishi bilan jiddiy shug‘ullangan. Fitratning vatanparvarlik she’rlari to‘plami bo‘lgan “Sayha” kitobi har qancha taqiqlab qo‘yilganiga qaramay, keng tarqalgan, jamiyatning hamma tabaqalari orasida bu kitob zo‘r qiziqish bilan o‘qilgan. Chunki bu she’rlarda Vatan mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berilgan.

Abdurauf Fitrat ilm bilan shug‘ullanishni da’vat etgan jadidchi bo‘lib, quyidagi hikmatli so‘zlarida aniq bayon etib bergan: *“Agar kishi tijorat bilan mashg‘ul bo‘lsa, bu dunyoda farovon yashaydi, agar ibodat bilan shug‘ullansa, u dunyoda oxirati obod bo‘ladi, agar ilm bilan shug‘ullansa, u ikki dunyo saodatiga erishadi”*.

XX asr o‘zbek adabiyotining mumtoz namoyandasi, iste’dodli adib Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi sanaladi. Uning asarlari o‘zbekning har bir xonadoniga kirib borgan, har bir o‘zbek kitobxonining sevimli asarlari qatoridan o‘rin olgan.

Vatanparvarlik, haqiqat, odob-axloq, andisha, uyat, or-nomus, vijdon tushunchalari Abdulla Qodiriy asarlarining ma’naviy ustunlari bo‘lgan. Bu tayanch ustunlar xalqimizning ming-ming yillik axloqiy an’analariga, islom falsafasi va Sharq ma’rifati ta’limotlariga borib taqaladi.

Millatni uyg‘otish, ma’rifatni ulug‘lash, Vatanni e’zozlash, ilmga da’vat – bularning bari jadid davri adabiyotining asosiy motivi bo‘lgan. Qodiriy asarlari va she’rlarida jaholatni, nodonlikni va ilmsizlikni qoralaydi. Bunday tuban hollardan qutulishning yo‘li maktablar ochish, ilm-ma’rifat o‘rganish ekanini ko‘p bor ta’kidlagan.

Abdulhamid Cho‘lpon – butun umrini xalqimizning mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo‘lib, emin-erkin yashashi va milliy taraqqiyot yo‘liga chiqib olishiga bag‘ishlagan, milliy adabiyotimizni yuksak dovonga olib chiqqan shoir, yozuvchi, dramaturg, adabiyotshunos va san’atshunos olim bo‘lgan. Cho‘lpon o‘sha davr matbuotlarida e’lon qilgan ilk maqolalarida o‘zbek millatining ma’naviy qashshoqlanishi va yurtining tutqunligidan yuragi pora bo‘lib, buyuk armonlarni ommaga yuqtirib, uni mavjud holatdan chiqarishga da’vat etgan dovyurak qalb egasi bo‘lgan.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shundaki, avvalambor xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishidir. Bunday g‘oyalar, avvalambor yosh avlodni milliy, ma’naviy hamda g’oyaviy jipslashtirish, ularni Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg’usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi.

Podpolkovnik
Ilhom BEGIMQULOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o‘qituvchisi



MOHIR SARKARDA
SULTON ABU SAID

Vatanimiz tarixining eng yuksak chog‘iga to‘g‘ri kelgan va butun jahon e’tirof etgan Temuriylar sulolasi davrining buyuk hukmdorlaridan biri bo‘lgan Abu Said Mirzo – Amir Temurning o‘g‘li bo‘lgan Mironshohning nevarasi edi. U Shohrux Mirzodan so‘ng saltanat hududlarini qayta birlashtirgan so‘nggi temuriy hukmdorlardan biri hisoblanadi. O‘zining 18 yillik hukmronligi davrida mamlakatda tartib va adolat o‘rnatishga harakat qiladi.

Abu Said Mirzo yoshlik davrini asosan Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug‘bekning hukmronligi davrida o‘tkazgan. Uning otasi Sulton Muhammad Mirzo, umrining so‘nggi bosqichlarida farzandlarini Mirzo Ulug‘bekning huzuriga topshirgani manbalarda qayd etilgan. Shunday qilib, Sulton Abu Said Mirzo Ulug‘bek saroyida o‘z yoshlik yillarini o‘tkazgan. Yoshligidan u Amir Temur tuzgan davlatni boshqarish va uni yana qayta tiklash orzusida bo‘lib, mamlakatning kelajagi haqida chuqur fikr yuritgan. Ulug‘bek va Abdulatif o‘rtasidagi kurashga shaxsan guvoh bo‘lgan Sulton Abu Said mamlakatning parokandalik yoqasiga kelib qolganini yaxshi anglagan edi. Mirzo Ulug‘bekdan so‘ng taxtni egallagan, Abdulatif davrida Abu Said biroz muddat Samarqandda hibsda saqlanadi. Keyinchalik Abdulatif uni Buxoroga jo‘natib yuboradi, bu yerda ham u hibsda qoladi. Bu davr Abu Said Mirzoning siyosiy hayoti va tajribalarini shakllantiruvchi muhim voqealar bilan to‘la bo‘ldi.

1450-YILI Abdulatif Mirzoga suiqasd uyushtirilib qatl etilgach, Samarqand taxtiga Ulug‘bekning jiyani Abdullo Mirzo o‘tiradi. Buxoroda hibsda saqlangan Abu Said esa ozod qilinadi. Buxorolik amaldorlar uni o‘zlariga yo‘lboshchi qilib tayinlashadi. Keyinchalik Turkistondagi Yassi shahrini qo‘lga kiritib, Samarqand taxtini egallash uchun tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Sababi bu davrda Xuroson, Fors va Iroqda hukmronlik qilayotgan Shohrux Mirzo avlodlari o‘rtasida taxt uchun kurash avjiga chiqqan edi.

Shuning uchun Abu Said Samarqandni egallash uchun dadil harakat qilgan edi. Bundan xabar topgan Mirzo Abdullo qo‘shin to‘plab Yassi shahriga yurish qilishni va Abu Saidni mag‘lub qilishni buyuradi. Katta qo‘shin Yassi shahriga kelib, o‘rtada shiddatli jang boshlanadi. Har ikki tarafdan ko‘plab qurbonlar beriladi. Shu jangda Sulton Abu Saidning harbiy sohada mohirligi qo‘l keladi. **U bir nechta odamlarni Dashti Qipchoq o‘zbeklari uslubida kiyintirib, qal’adan tashqariga chiqarib yuboradi va ularga “O‘zbek lashkari madadga keldi” deb ovoza qilishni buyuradi**. Bu xabarni eshitgan Mirzo Abdullo askarlari sarosimaga tushib, Yassi qamalini to‘xtatadi va ortga qaytadi. Abdurazzoq Samarqandiy o‘z asarida aynan shu jangdagi g‘alaba Abu Saidning keyingi faoliyatidagi muhim nuqta deb ta’rif beradi va Samarqand taxtini egallash uchun ishtiyoqi ortganini ta’kidlaydi.

Samarqandga yetib kelgan qo‘shin voqea tafsilotlarini Mirzo Abdulloga yetkazishdi. Mirzo Abdullo tezlik bilan yana qo‘shin to‘plab, Abu Saidga qayta zarba berish rejasini tuzadi. Bu safar qo‘shinga o‘zi boshchilik qiladi. Samarqand lashkari Shohruhiya shahri tomonga qarab yo‘lga chiqadi. Bu vaqtda Abu Said o‘zaro maslahatlashib, Abulxayrxon huzuriga o‘z vakilini yuboradi va Samarqand taxtini egallash uchun yordam so‘raydi. Bu taklif Abulxayrxon tomonidan ijobiy qabul qilinadi va o‘z askarlari bilan birgalikda Abu Saidga kelib qo‘shiladi. Har ikki qo‘shin birlashganidan so‘ng Toshkent va Xo‘jandga keladi. Bu xabarni eshitgan Mirzo Abdullo ham katta qo‘shin tuzib yo‘lga chiqadi. Sheroz yaqinida ikki qo‘shin to‘qnashib, shiddatli jang boshlandi. Jangda Mirzo Abdullo qo‘shini mag‘lubiyatga uchraydi, o‘zi esa o‘ldiriladi. Abu Said Samarqand shahriga kirib boradi va saltanat taxtiga o‘tiradi. Shu tariqa 1451-yildan boshlab uning mamlakatda hukmronligi boshlandi. Abulxayrxonga yordami uchun qimmatbaho sovg‘alar berib, Mirzo Ulug‘bekning qizi Robiya Sultonbegimni xotinlikka topshiradi.

BU DAVRDA ulkan saltanat ikki qismga bo‘lingan edi: Samarqandda – Abu Said Mirzo, Xurosonda – Abulqosim Bobur. Har ikki sulton ham mamlakatni birlashtirib, yakka hukmronlik o‘rnatmoqni niyat qilgan edi. Shu sababdan ikki temuriy shahzodalar o‘rtasida urush kelib chiqishi ayon bo‘ldi. Abulqosim Boburning maqsadi Samarqandni egallash bo‘lsa, Abu Saidning maqsadi Xurosonni ham o‘z davlati sarhadlariga qo‘shib olish va Amir Temur davridagi davlat sarhadlarini tiklash edi.

1453-YILI Abulqosim Bobur Fors va Iroqni Temuriylar davlati tarkibiga qaytarish uchun harbiy harakatlarni boshlaydi. Qulay vaziyatdan foydalangan Sulton Abu Said Mirzo Amudaryodan kechib o‘tib, Badaxshondan Murg‘obgacha bo‘lgan hududlarni bosib oladi. Bu voqeadan xabar topgan Abulqosim Bobur Fors va Iroqqa yurishini to‘xtatib zudlik bilan ortga qaytadi. Abu Said Mirzo esa bu vaqtda chekinib bo‘lgan edi. Biroq Abulqosim Bobur yurishni davom ettirib, o‘z qo‘shini bilan endi Samarqandni ishg‘ol qilish uchun yo‘lga chiqadi. Abu Said o‘z elchilarini yuborib, sulh tuzishni taklif qiladi, ammo Xuroson lashkari Samarqand tomon yurishni davom ettirdi.

Bobosi Shohrux Mirzo Xalil Sultondan Samarqand taxtini olgani yodiga tushgan Abulqosim Bobur g‘alabaga bo‘lgan ishonchi ortadi. Ulkan qo‘shin poytaxt Samarqand tomon yaqinlashar ekan, ikki temuriy shahzodalar o‘rtasida qonli urush bo‘lishi tayin edi. Xurosonliklarning vajohati Samarqand ahlini qo‘rqitmadi. Abu Said boshchiligida shahar aholisi mardonavor tarzda shaharni himoya qilishdi.

Shahar darvozasi oldida har ikki tarafning qo‘shinlari o‘rtasida kichik-kichik to‘qnashuvlar bo‘lib turdi. Xuroson qo‘shinining navbatdagi hujumi vaqtida Samarqand askarlari tomonidan Amir Xalil va mavlono Ahmad Yasovul o‘z odamlari bilan asirlikka tushib qoldi. Ular Sulton Abu Said huzuriga keltirilganidan so‘ng tutqunlikda saqlash uchun yuborildi. Jang shu tarzda qirq kun davom etdi. Samarqandlik amirlarning ham bir nechtasi Abulqosim Bobur askarlari tomonidan asirlikka olindi. Jangning asosiy qismi kuz oylariga to‘g‘ri kelgan edi. Qish fasli yaqinlashib qolgani uchun ham har ikki taraf sulh tuzishga kelishib olishdi. Unga ko‘ra, Sulton Abu Said Mirzo faqatgina Movarounnahr *(Turkiston)* bilan cheklanishi, Xuroson hududiga da’vo qilmasligi va asirlikka olinganlarning o‘zaro almashinuvi ko‘zda tutilgan edi. Manbalarda har ikki hukmdorning murosaga kelishida Xoja Ahrorning xizmati katta bo‘lgani e’tirof etiladi. Ba’zi tadqiqotlarda bu yurishga Abu Saidning o‘zi sababchi bo‘lgani *(Balxga hujumi)* bayon etilsa-da, biroq shunday katta lashkarga qarshi jang qilib, sulh natijasida o‘z davlati sarhadlarini saqlab qolgani diqqatga sazovordir.

1457-YILDA Abulqosim Bobur vafot etadi. Undan so‘ng Xuroson taxtiga to‘ng‘ich o‘g‘li Mirzo Jaloliddin Shoh Mahmud o‘tirishi kerak edi. O‘sha vaqtda u 11 yoshda edi. Abulqosim Boburning boshqa farzandi yo‘q edi. Shoh Mahmud Mashhadda bo‘lgani uchun taxtga o‘tirish maqsadida, Hirot tomon yo‘lga chiqadi. Yo‘lda xabarchilar unga Marv hokimi Sanjar Mirzo unga bo‘ysunmasligi xabarini yetkazishadi. Shoh Mahmud taxtga o‘tirganidan so‘ng unga qarshi Ibrohim Mirzo qo‘shin tortib, kelayotganini eshitib, o‘z qo‘shini bilan Mashhadga jo‘nab ketadi. Biroq yo‘lda Ibrohim Mirzo bilan to‘qnash kelib jangda mag‘lubiyatga uchraydi. Shundan so‘ng Sulton Ibrohim Mirzo Hirotga kelib saltanat taxtiga o‘tiradi. Shoh Mahmud esa 14 yoshida Qobul hukmdori Amir Boboga qarshi jangda yaralanib vafot etadi. Ammo Sulton Ibrohim Mirzoning Hirotdagi hokimiyati ham uzoq davom etmadi. Sababi bir tarafdan qoraqo‘yunlilar rahbari Jahonshoh va Samarqand hukmdori Abu Said Mirzo Xurosonga hujum qiladi. Oxir-oqibat 1457-yilda Sulton Abu Said Mirzo o‘zining azaliy orzusiga erishdi. Movarounnahr *(Turkiston)* va Xuroson yerlari uning qo‘l ostida birlashdi.

Xuroson taxtidan voz kechmagan Ibrohim Sulton, Alouddavla va Sanjar Mirzo bilan ittifoq tuzib, yana Abu Said Mirzoga qarshi qo‘shin tortadi. 1459-yilda bu ikki qo‘shin to‘qnashadi va jangda Abu Said Mirzo g‘alaba qozonadi. Ibrohim Mirzo esa qochib ketadi. Ular bilan ittifoq tuzgan Sanjar Mirzo esa qatl qilinadi.

SULTON ABU SAIDNING Markaziy Osiyo tarixi oldidagi yana bir xizmati shundaki, 1457-yili Temuriylar davlati ichki kurashlaridan foydalanib, Hirotni egallab olgan Jahonshohdan Xurosonni qaytarib oladi va mamlakatni birlashtiradi. Qora Yusufning o‘g‘li Jahonshoh 1453-yili butun G‘arbiy Eronni temuriylardan



MIRZO

tortib olgan edi. 1458-yilga kelib, Abu Said Jahonshoh turkmanning Hirotni bosib olishga urinishini daf etishiga to‘g‘ri keldi. Otasi doim Amir Temurdan qochib yurgan Jahonshoh temuriylarning Xurosondagi mulki hisobiga o‘z yerlarini kengaytirmoqchi bo‘ldi. 1459-yili Abu Said Jahonshoh bilan bir bitim tuzdi, bu bitimga ko‘ra, G‘arbiy Eron Jahonshoh hukmronligiga o‘tdi, Xuroson esa Abu Saidning qo‘l ostida qoldi. Temuriylar davlatining Abu Said tomonidan birlashtirilishi saltanat qudratining oshishiga imkon berdi. Aynan shu voqealar sababli endi temuriylar xonadon boshchiligi Mironshoh Mirzo avlodlari qo‘liga o‘tdi. Bu, o‘z navbatida, Sulton Abu Saidning Zahiriddin Muhammad Boburning bobosi sifatida Temuriylar sulolasining Hindistonda yirik saltanat bunyod etishida ham alohida o‘rni borligidan dalolat beradi. 1467-yili Jahonshoh vafot etadi va Abu Said temuriylarning G‘arbiy Erondagi hokimiyatini tiklashga qaror qiladi.

Xuroson hududi to‘liq qo‘lga kiritilganidan so‘ng Sulton Abu Said buyrug‘i bilan u yerda obodonlashtirish va qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qisqa fursatda Xuroson obod qilindi. Sulton qayerga bormasin, o‘sha yerda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirar, ilm ahlini moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirar edi.

DAVLAT CHEGARALARINI dushmanlardan himoya qilish masalasida ham Sulton Abu Saidning xizmatlari ulkandir. Xususan, “Boburnoma”da keltirilishicha, Temuriylar davridagi ichki nizolardan foydalanib, Mo‘g‘uliston hukmdori Eson Bug‘axon Farg‘ona viloyatining Konibodom hududigacha kirib kelib, Andijonni qo‘lga kiritadi va aholini asir oladi. Tarixi Rashidiyda esa Eson Bug‘axonning yurishi Sayram, Turkiston va Toshkentga qadar davom etib, tamoman u yerlarni vayron qilib, ortga qaytgani bayon etilgan. 1451-yilgacha bu kabi hodisalar davomiy bo‘lib turgan. Abu Said taxtni qo‘lga olganidan so‘ng davlatining sharqiy hududlarini himoya qilish uchun qo‘shin tortib, Mo‘g‘ulistonda Eson Bug‘axonni yengadi.

Bundan tashqari, hukmronlik yillarida doimiy tarzda Samarqand va Hirot taxtini egallamoq uchun hujumlar to‘xtamagan. Shunday bir sharoitda Sulton Abu Said har ikki taxtni munosib tarzda himoya qila olgan. Amir Xalil, Mirzo Sulton Husaynlar Hirotga bir necha bor hujum qilishgan. Ko‘plab talafotlar yetkazilgan. Abu Said Mirzo poytaxtni dushmandan himoyalab, taxtni saqlab qola olgan.

SULTON ABU SAID Xuroson taxtiga o‘tirganidan so‘ng ham Shohrux Mirzoning avlodlari doimiy tarzda bu hududni egallash uchun kurash olib borgan. Shulardan biri Abdulatifning to‘rtinchi o‘g‘li *(Mirzo Ulug‘bekning nevarasi)* Muhammad Jo‘ki Mirzo edi. U Shohruhiya Axsikent, Sayram, Toshkent viloyatlarida Sulton Abu Saidga qarshi isyon ko‘taradi. U harbiy ko‘mak so‘rab, Abulxayrxon huzuriga boradi. Uning ammasi Robiya Sulton Begim o‘sha vaqtda Abulxayrxonning xotini edi. Shu sababdan Abulxayrxon Muhammad Jo‘kini yaxshi kutib olib, Bo‘rka Sulton boshchiligidagi harbiy qismni uning ixtiyoriga beradi. Natijada Muhammad Jo‘ki Movarounnahr *(Turkiston)* hududiga hujum qilib, Karmana yaqinida bo‘lgan jangda Sulton Abu Saidning qo‘shinini mag‘lub qiladi. Shohruhiya, Axsikent, Sayram ham qo‘lga kiritiladi. Sulton Abu Said esa uning bu yerlardagi hukmronligini tan oladigan sulh tuzishga majbur bo‘ladi.

1461-YILDA esa Sulton Abu Said qo‘shinlari Shohruhiyani qamal qiladi. Urush uzoq cho‘zilib ketgani uchun Sulton bu safar ham sulh tuzishga majbur bo‘ladi. Biroq 1462-yilda Sulton Abu Said qo‘shinlari shaharni yana qamal qiladi. Bu safar ham bir yildan oshiq qamalda qolgan shahar aholisi Xo‘ja Ubaydulloh Ahror vositachiligida sulh tuzishni talab qilishadi. Sulh talabiga ko‘ra, Sulton Abu Said qo‘zg‘olonchilarni afv etishi kerak edi. Shundan so‘ng Muhammad Jo‘ki boshchiligidagi shahar aholisi afv etiladi. Ammo Muhammad Jo‘ki Mirzo 1464-yilda qo‘lga olinib, Ixtiyoriddin qal’asining zindoniga tashlanadi. O‘sha yili zindonda vafot etadi.

Sulton Abu Saidning yana bir raqiblaridan biri qoraqo‘yunlilar sardori Jahonshoh edi. Dastavval Jahonshohga qarshi kurashish uchun Sulton Ibrohim Mirzo Abu Saidga elchi yuborib, o‘zaro ittifoq tuzishni taklif qiladi. Sulton Abu Said bu sulhga rozi bo‘ladi. 1458-yilda Jahonshoh Hirotga keladi. Sulton Ibrohim Mirzo esa Hirotni tashlab chiqib ketgan edi. Manbalarda yozilishicha, o‘sha davrlarda Sulton Abu Said va Jahonshoh o‘rtasida bir necha bor elchilik aloqalari o‘rnatilgan. Biroq bu aloqalar har ikki tarafning Xuroson masalasida o‘zaro kelishib olishiga yo‘l bermadi. Sulton Abu Said Xurosonga kirib, u yerni bosib olishga tayyorlana boshlaydi. Jahonshohdan oldin uning o‘g‘li Pirbudoq Sulton qo‘shinlari bilan to‘qnashadi va mag‘lubiyatga uchraydi. Bu g‘alaba qoraqo‘yunlilarning Xuroson hududidan chiqib ketishi bilan tugaydi. Ikki o‘rtada yana sulh tuziladi va Jahonshoh Xurosonga bo‘lgan da’vosidan voz kechadi. Shu tariqa Sulton Abu Said Hirot taxtini ikkinchi marta egallaydi.

1458-YILDA Alouddavla, Ibrohim Mirzo va Sanjar Mirzolar birlashib, yana Sulton Abu Saidga qarshi jang qiladilar. Urushda Sulton qo‘shinlari g‘alaba qiladi. Sanjar Mirzo qatl qilinadi, Alouddavla va Ibrohim Mirzo jang maydonini tashlab qochib ketadi.

Taxt uchun yana bir da’vogar Husayn Boyqaro edi. Avvaliga u Astrobodda hokimlik qilib, Sulton Abu Saidga bo‘ysunar edi. Sulton esa Jahonshoh bilan munosabatlariga aniqlik kiritib olganidan so‘ng Astrobodni ham davlatiga qo‘shib olishni niyat qiladi. 1461-yilgacha bo‘lgan davrda har ikki taraf o‘rtasida to‘qnashuvlar va elchilar almashinuvi bo‘lib turadi. Biroq Sulton Abu Said ichki ahvolni yaxshilab olganidan so‘ng Astrobodni egallash uchun qo‘shin tortadi. Husayn Boyqaro katta qo‘shin bilan kelayotgan Sulton Abu Saidga kuchi yetmasligini tushunib, Astrobodni tashlab chiqib ketadi. Sulton shaharni qo‘lga kiritib, uchinchi o‘g‘li Sulton Mahmudga beradi va o‘zi Hirotga qaytadi. Biroq tezda Husayn Boyqaro Astrobodga hujum qilib uni qayta egallaydi, Sulton Mahmud esa Hirotga qochib keladi.

SHUNDAN SO‘NG Husayn Boyqaro Hirotni egallash maqsadida qo‘shin tortadi. Bu vaqtda Sabzavor hokimi Said Murod va Nishopur hokimi Said Asil Arg‘un shaharni mudofaa qilish uchun yetib keladi. Ikki o‘rtada bir necha marta to‘qnashuvlar bo‘lib turadi. Hirot shahri dushmanga taslim bo‘lmaydi. Biroq Husayn Boyqaro ham qamalni davom ettiradi. Nihoyat, Sulton Abu Said Muhammad Jo‘kiy bilan sulh tuzib, Hirot mudofaasi uchun yo‘lga chiqadi. Bundan xabar topgan Husayn Boyqaro esa qamalni to‘xtatib, Astrobodga chekinadi. Sulton qo‘shinlari uni ta’qib qilishda davom etadi. Noiloj qolgan Husayn Boyqaro Astrobodni ham tashlab, Xorazmga ketadi. Xorazmni egallab, u yerdan yana bir necha marta Xurosonga hujumlar qilib turadi. Sulton Abu Said tomonidan Xorazmga rahbar qilib tayinlangan Nur Said va Husayn Boyqaro o‘rtasida ham ko‘p to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. Shunday janglarning birida Nur Said mag‘lub bo‘lib, Xorazm hududi to‘liq Husayn Boyqaro qo‘liga o‘tadi. Husayn Boyqaroning maqsadi Hirot va Samarqand taxtlarini egallash edi. Bunga bir necha bor harakat qilgan bo‘lsa-da, Sulton Abu Said hukmronligi davrida bu maqsadiga yeta olmaydi. 1468-yilda Husayn Boyqaro Abulxayrxon huzuriga borib, undan harbiy ko‘mak so‘raydi. Bu vaqtda Abulxayrxonning o‘zi qattiq betob bo‘lib qolgan edi. Shunga qaramasdan, Husayn Boyqaroni yaxshi kutib olib, unga yordam berishga qaror qiladi. Ammo Abulxayrxon o‘sha vaqtda vafot etadi va uning davlatida parokandalik boshlanadi. Bundan foyda chiqishiga ko‘zi yetmagan Husayn Boyqaro ortga qaytib ketishga majbur bo‘ladi.

Abulxayrxonning vafoti esa Sulton Abu Saidga qo‘l kelib, Ozarbayjon va G‘arbiy Eronni o‘z saltanati tarkibiga qo‘shib olishni reja qiladi. Shu tariqa o‘z davlatining shimoliy chegaralarini va Xorazm xavfsizligini ta’minlamoqchi edi. Shundan so‘ng qo‘shinni g‘arbga tomon yo‘naltirishni maqsad qilgan edi. Mamlakatning sharqiy chegaralaridagi vaziyat uning nazorati ostida edi. U Yunusxonni qo‘llab-quvvatlab, Mo‘g‘ulistondagi Eson Bug‘aning hukmronligiga barham bergan edi. G‘arbiy Eron va Ozarbayjon hududlari Temuriylar davlati uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatidan bog‘liq hududlar edi.

AMIR TEMUR va Mironshohning hukmronligi davrida bu hududlar temuriylarga bo‘ysungan bo‘lsa, undan keyingi davrlarda temuriylarning bu hududlardagi mavqei ancha pasayib qolgan edi. Shu sababdan Sulton Abu Said bu hududlarni davlati tarkibiga qo‘shib olishni maqsad qilgan edi. Ayni vaqtda bu hududlarda oqqo‘yunlilarning ta’siri ortib borayotgan edi. Oqqo‘yunli va qoraqo‘yunlilar o‘zaro ziddiyatida Hasanbek boshliq oqqo‘yunlilar Jahonshoh boshliq qoraqo‘yunlilar ustidan g‘alaba qozonadi. Sulton Abu Said esa Hasanbek bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatadi. 1468-yilda Abu Said maktub yo‘llab, bu hududlar avvaldan temuriylarga tegishli bo‘lgani, endi Ozarbayjon va G‘arbiy Eronni unga topshirish kerakligini ma’lum qiladi. Evaziga Shom va Misr hududlari Hasanbekka berilishini va’da qiladi.

Shu tariqa o‘zining hukmronligi davrida Sulton Abu Said Mirzo gohida janglar, gohida diplomatik yo‘llar orqali mamlakat hududini muhofaza qilishga intildi. Deyarli barcha temuriylarda bo‘lgani kabi uning ham harbiy mahorati yuksak darajada edi. 1469-yilda vafot etganidan so‘ng mamlakatda yana taxt uchun kurashlar kuchayib ketadi.

Ulug‘bek OLIMOV,
Tarix instituti Harbiy tarixni o‘rganish markazi kichik ilmiy xodimi

Oydinlar tavsiya etadi



Bolalik kezlarimda – endigina oyog‘im chiqib, yura boshlaganimda, hoynahoy, uch yoshlarda bo‘lsam kerak, “kitob”, “maktab” so‘zlari opalarimning gurunglari orqali tafakkurimdan joy olgan. Bir kuni opamning kitoblarini kuchim yetganicha ko‘tarib, maktabga otlanganman. Hovlimizning ko‘chaga chiqish tomonidagi darvozaning ostonasi balandligi tufayli undan chiqa olmaganman. Yiqilib tushsam ham chiranib, qo‘limdagi kitoblar bilan ostonadan chiqishga harakat qilar ekanman, ariqdan suv olgani ketgan opam kelib qolgan. “Qayerga ketyapsan, kitoblarni olib qaylarga jo‘nading?” deya o‘zimni ko‘tarib, uyga olib kirgan. Kitobga qiziqishim tobora oshib borar edi.



Kitoblar universitet ibratxona

Opalarimning kitoblarini varaqlashni yaxshi ko‘rardim. U yerdagi odamlar, tabiat, jonivorlar suratini tomosha qilishdan erinmas edim. Keyinroq uyimizga keladigan gazeta-jurnallar mening qiziqishimni yanada oshirdi. Harf tanimasam ham, xuddi o‘zimni o‘qiyotgandek ko‘rsatardim. Momom: “Jurnalda nima yozilibdi, bolam, o‘qigin-chi”, desa televizordan eshitgan uch-to‘rt so‘zimni to‘tiqushdek takrorlab, jurnalda shu gaplar bor ekan, deya u kishini ishontirishga tirishar edim. Momom ham “Mening qizim o‘qishni biladi”, deya erkalar, tajohuli orifona – bilib turib bilmaslikka olish san’atini qo‘llar edi.

Keyinroq birinchi sinfga borganimda, ilk o‘qigan kitoblarim Indoneziya, Birma va Angola xalq ertaklari bo‘ldi. Yostig‘imning tagidan qo‘ymay, uzun kechalar ana shu qiziqarli ertaklarni o‘qiyotganimda uchinchi opam “Senga hali bu kitoblarni o‘qish mumkin emas”, deb qo‘limdan olib qo‘ymoqchi bo‘ldi. To‘g‘ri-da, bu ertaklar kattalar uchun edi. Ammo shu kitoblar mening ovunchog‘imga aylangan edi-da.

Bir kuni qiziq voqea bo‘ldi. Hamsoyamizning qizi Xayrini-so qishloq kutubxonasiga qatnayotganini maqtanib qoldi. U mendan uch sinf yuqorida o‘qiydi, dunyo yangiliklarini biladi. Jahon xalqlari tinchlikni istasa ham, ammo kimlardir urush olovini yoqmoqchi bo‘layotganini, osoyishtalikni hamma birgalikda himoya qilishi kerakligini ham undan eshitganman. Xullas, u bir kuni meni kutubxonaga olib bordi. Kutubxonachi birinchi sinfligimni eshitib, meni a’zo qilmadi. Shunda Xayri bir yaxshilik qildi. U menga kitob oladi, men o‘qib, qaytarib beraman. Shu tariqa ancha vaqt kitobxonlik qilib yurdim. Qachon urishib qolsak, arazimiz tarqaguncha, kitob kelishi ham to‘xtab qolar edi.

Ikkinchi sinf bo‘lganimdan keyin bir amallab, kutubxonachi Shirin xolamni a’zo bo‘lishimga opam ko‘ndirdi. Kitoblar kir bo‘lishi yoki yirtilishidan xavotir bo‘lgan kutubxonachi xola sal qalinroq kitoblarni menga bergisi kelmas, kichik sinflar uchun ajratilgan o‘n yoki yigirma chog‘li kitobni ikki qaytadan o‘qib chiqqan edim. Sabr bilan katta sinf bo‘lishimni kutar edim. Ammo tezda kela qolmas edi, katta bo‘lish ham.

Bir kuni menga Xayri “Orqasida lola rasmi bor kitoblar qiziqarli bo‘lishini” aytdi. Men orqasida lola rasmi bor kitoblarni topib o‘qiy boshladim. Ammo hamisha ham uning aytgani to‘g‘ri chiqmas edi. Ba’zan zerikarli kitoblar ham qo‘limga tushar edi. Keyinroq bildimki, bu lolaning rasmi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot belgisi ekan.

Bir kuni kutubxonachi “Sen ham, Tog‘ay Murod ham jonimga tegdilaringiz, hadeb kelaverasizlar, “otchot” yozgani ham qo‘ymaysizlar”, deb qoldi. Shunda men u odam kim deb surishtirdim. Tog‘ay Murod asli Xo‘jasoatdan, lekin hozir Vaxshivorda, bolalar dam olish oromgohiga kelib, o‘sha yerda yotib kitob yozayotgan ekan. “Biror kun kelsang, Tog‘ay Murod bilan gaplashasan, ikkalangiz ham faol kitobxonsizlar-ku”, dedi. Albatta, o‘zing o‘qigan kitoblar, kitob qahramonlari haqida suhbatlashish juda qiziqarli. Ammo men tabiatan tortinchoq bo‘lganim uchunmi, yozuvchi bilan ko‘rishishga kelmadim.

Asta-sekin mening she’rlarim, maqolalarim matbuotda chop etila boshlandi. Jiddiyroq kitoblarga o‘tdim. Endi Shirin xolam menga ishonar, qalin kitoblarni olsam ham koyimas, endi katta bo‘lib qolgan edim. Keyinroq otajonimga kitob olib kelib bering, deb kitoblar ro‘yxatini beradigan bo‘ldim. Shaxsiy kutubxonam ham boyib bordi.

Kun kelib maktab kutubxonasiga ham a’zo bo‘ldim. Bu yerdagi kitoblar benihoya qiziqarli edi. Kutubxonachi Hikmat Nurov qattiqqo‘l ko‘rinsa-da, ammo qancha xohlasam, shuncha kitob olishimga ruxsat berar edi. Birdaniga olti-yettita kitob olar edim. Uch-to‘rt kunda kitoblarni o‘qib tugatar edim. “Tom tog‘aning kulbasi”, “Rual Amundsen”, “Sevan bo‘ylarida”, “Vasyok Trubachyov va do‘stlari”, “Mittulkaniston-u aljabrga sayohat” kabi kitoblar mening eng sevimli kitoblarim edi. Vaqti-vaqti bilan shu kitoblarni sog‘inib, qayta-qayta o‘qir edim. Yillar o‘tib tushundimki, **KITOBLAR HAM TIRIK BO‘LADI.** O‘zing yoqtirgan kitoblar hayotingning ma’nosiga aylanadi. O‘sha kitoblar yoningda bo‘lsa, o‘zingni kuchli, baquvvat sezasan, to‘laqonli inson bo‘lasan.

Kitoblar insonga misoli uchish uchun qanot kabidir degim keladi. O‘qing va qalbingizni orom oldiring! Kitob o‘qigan odamning miyasi qarimaydi, hamisha tafakkuri sayqal topib, yangilanib turadi. O‘qimay qo‘ysa, aksi bo‘ladi. Paulo Koelo aytgan ekan, “Shunday yashaginki, toki yuraging bir parcha go‘shtga aylanib qolmasin”.

Johillikni, baxillikni, baxtsizlik va omadsizlikni, ruhiy tushkunliklarni kitob bilan quving, aziz do‘stlarim! Lev Tolstoy aytgan ekanki, “Kitob o‘qing, jiddiy asarlarni o‘qing, qolganini hayotning o‘zi beradi”.

Ha, shunday. Hayot tavsiya qilgan kitoblarni o‘qimasdan iloji yo‘q! Men ham sizlarga jiddiy kitoblarni o‘qing, degim keladi.

Har bir kitob aslida alohida universitet, alohida ibratxona.

O‘zligingizni tanish va shaxsan mehnat qilmay turib, hayotda zafar qozonish qiyin. Ko‘pincha talabalarimga kamida 25-30 atrofida kitob tavsiya qilaman. Garchi bundan afzal mutolaa uchun ro‘yxatlar bo‘lsa-da, shu yozuvchilar va asarlarini sizlarga tavsiya qilaman:


- Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”.
- Chingiz Aytmatov barcha asarlari.
- Oybek. Barcha asarlari.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” va barcha asarlari.
- Aleksandr Belyayev. “Rual Amundsen”.
- Stendal. “Qizil va qora”.
- O‘tkir Hoshimov. Barcha asarlari.
- Xudoyberdi To‘xtaboyev. Barcha asarlari.
- R. Akutagava. “To‘qayzorda”.
- Abdulla Qahhor. Barcha asarlari.
- Nazar Eshonqul. Barcha asarlari.
- Vilyam Shekspir. Barcha asarlari.
- Shukur Xolmirzayev. Barcha asarlari
- Usmon Azim. Barcha asarlari.

Huzurli mutolaa tilagi bilan

Gulandom TOG‘AYEVA,
shoira



Olim, shoira Gulandom Tog‘ayeva nomi o‘smirlik paytidayoq tilga tushgan edi. U avliyo So‘fi Olloyorning izlari qolgan muborak manzil – Vaxshivorda tug‘ilib o‘sgan. Sobiq Ittifoq televideniyesi tomonidan iste’dodli qizaloq haqida ko‘rsatuv tayyorlanganida u taxminan 14-15 yoshlarda edi. Bir o‘quvchi sifatida men uning she’riyati maftuniman. Aziz Vatan himoyachilari, sizlarga ham uning betakror ijodidan bahramand bo‘lishni tavsiya qilaman.



Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng milliy adabiyotimiz yo‘lida xizmat qilgan ko‘plab yetuk ijodkorlar – shoir-yozuvchilar-u jurnalistlar, tarixchi va adabiyotshunos olimlar faoliyati ko‘zga yarq etib tashlandi. Nega deganda, bu insonlar bir necha yil sovet istibdodi paytida toptalgan tariximizning tiklanishida, to‘qib chiqarilgan afsona o‘tmish tafsilotlarining barham topishida salmoqli mehnat qilishdi.

“YULDUZLI TUNLAR” og‘ushidagi adib

Masalan, Erkin Vohidov – hali mustaqillikka erishmasimizdanoq xalqimiz orasida Vatanimizning dastlabki madhiyasi sifatida ommalashgan “O‘zbegim” she’ri o‘z vaqtida juda shov-shuv bo‘lib ketgan. Abdulla Oripovning she’riyatini zakiy elimiz yod olib bo‘lishgan. Ayniqsa, “Sohibqiron” dramasini aytmaysizmi. Vatanimiz madhiyasini ham teran fikr, o‘tkir nigoh, keskir so‘zlar bilan bitgan. Pirimqul Qodirovning seriyali “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” romanlari Boburiylar sulolasining asl tarixini tiklab berdi.

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” nomli roman-epopeyasi yurtimiz tarixining 1370–1409-yillaridagi davri bo‘lmish yangi, hali mavjud bo‘lmagan markazlashgan davlat tuzolgan buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur davrining ko‘rkam yoritilishi bilan o‘zining alohida o‘rni va salmog‘iga ega. Suyukli adibimiz Muhammad Ali ushbu romanni insho etar ekan, sohibqiron bobomiz ruhi adibimizga kuch-quvvat bag‘ishlagan, desak, hech ham mubolag‘a emas. Aynan shu holat Pirimqul Qodirovda ham sodir bo‘lgan, ya’ni Boburiylar tarixidan so‘zlovchi ikki qismdan iborat roman yozilishida, Mirzo Bobur ruhi kamarbasta bo‘lgan, desak, bu ham haqiqatga zid kelmaydi. Bugun aynan shuni aytmoqchiman.



Pirimqul Qodirov 1928-yilning 25-oktabr kuni Tojikiston Respublikasi Shahriston tumanida dunyoga keladi. Qarangki, bu yil adib tavalludiga 96 yil bo‘libdi. Bu esa qariyb bir asr demakdir. Shu davr mobaynida Vatanimiz boshiga ne ishlar tushmadi deysiz. Bobo-momolarimiz qay zahmatlar chekmadi deysiz. Shukrki, bugun hammasi ortda qoldi. Istiqlolimiz o‘z qo‘limizda. Shonli tariximiz tiklandi, ertangi kunga yuksak ishonchimiz, porloq kelajakka ishonchli rejalarimiz bisyor. Boshimizda ko‘lankamiz – sarbonimiz buyuk kelajak sari otlangan o‘zbeklar karvonini ravon yo‘llardan kelajak sari boshlamoqda.

Bizning o‘lkalar qadim davrlardan dunyo tarixi solnomalarida o‘zining arslon panjasini bosib, dunyo tamaddunida zalvarli hissa qo‘shib kelishgan. Biz bugun faxrlanib, og‘iz ko‘pirtirib gapiradiganimiz kurrayi zamin tan olgan ulug‘ bobolar oldiga ulkan maqsadlar qo‘yib, shunga yetishmaguncha oromiga orom bergan insonlardir. “Yulduzli tunlar” romanini ilk bor o‘qiganimda Bobur bobomizga ichikib, ko‘zimda jolalar aks etgan. Boshiga tushgan sanoqsiz mushkulotlar bobomizning zuvalasini pishiq qilib ulg‘aytirgan. Afsuski, hozirgi paytda ko‘pchilik yosh avlodni kuzataman, salgina sinovga ham dod-voy qilishdan boshqa yo‘l topmaydi, balki izlamaydi. 12 yoshida davlat tepasiga kelgan mirzo beg‘ubor yoshligini yashamay o‘tkazadi. Tasavvur qilyapsizmi? Yashamay o‘tkazadi! Bu holat bir qaraganda odatiy holdek tuyular, ammo teran nazar solinsa, aslida taqdir imtihonlari bir yigit umrining kushandasi bo‘ladi.



Balki hazrati Bobur otasi Umarshayx Mirzodan barvaqt yetim qolib, mashaqqat o‘z yelkasiga tushmaganida, ehtimol, biz bilgan Mirzo Bobur bo‘lmasdi. Tarixda xonlar ko‘p, shohlar ko‘p, ammo Bobur yagona, Amir Temur yagona. Hayot so‘qmoqlaridan mardona o‘tgan jahongirlar barmoq bilan sanagulik. Mayli, Bobur bobomiz qismatidagi umrni yashab o‘tdi. Endi bu umrni xalqqa silliq yetkazish uchun yozayotgan ijodkorning o‘zi ham shu umrni qahramoni bilan birga yashamog‘i lozim. Aks holda, xolis yorita olmaydi. Pirimqul Qodirov ham o‘z qahramoni bilan necha mashaqqat chekdi, necha marta daydi paykonlarga ko‘ksini qalqon qildi, bu sirlarni o‘zi bilan olib ketdi. Nima bo‘lganda ham eng muhimi, bizga bobomizning shaxsiyatidagi asliyatni qaytarib berdi hamda shu ishi bilan o‘z nomini adabiyot abadiyatiga muhrlab ketdi.

Men sanoqli asarlarni o‘qib, o‘zgacha rohat topganman. Shulardan biri aynan “Yulduzli tunlar”dir. Yozish uslubini aytmaysizmi. Misralar shunday silliq o‘qiladiki, she’rdek mayinlik, go‘zal joziba, o‘zgacha yondashuv bor. Hozir o‘sib-unayotgan adiblar ichida Pirimqul Qodirov yo‘lidan yurayotgani deyarli uchramaydi. Ehtimol, o‘zini ochiqlashga istihola qilib, chekka hududlarda sokin qalam tebratayotgan kamtarin adiblarimiz bordir, chiqishidan umidvorman. Milliy adabiyotimiz kelajagi uchun bunday ijodkorlar hali ko‘p kerak.

Yuqorida ta’kidlaganimdek, hozirgi davrda biz bilan zamondosh-u zamindosh bo‘lib yashab kelayotgan afsonaviy ijodkorlarimiz – O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, Erkin A’zam, O‘zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Iqbol Mirzo, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Mamatqul Hazratqulov, Abdusaid Ko‘chimov, Farrux Rasulov biz uchun haqiqiy ilm ummonlaridir. Ustozlarning o‘tganlarini Alloh rahmatiga olib, hamnafas bo‘lib yurganlarining umrlari uzoq bo‘lsin deymiz. Bu insonlar adabiyotimiz, jurnalistikamiz, ustunlari, millatimizning ko‘zgularidir.

Abadiyatga daxldor umr egalari hech qachon o‘lmaydi. Ular mangu yashaydi. Xalqi yodida, bizning qalbimizda, muxlislari oldida. Adabiyotning chin muhiblari bilan birga darslarga borishadi, shodiyonalarga borishadi, yo‘llarda birga yurishadi va eng muhimi, sokinlikda suhbatdosh bo‘lishadi. Kitob ahli shundayki, tinchlikni sevadi, shovqinni xushlamaydi. Shovqinda mutolaa tatimaydi, xuddi og‘rigan oshqozonga tanovul qilib bo‘lmaganidek. Kitob ichidan so‘zlagan adiblar ham shunchalik beozorki, to siz uni “bezovta” qilmaguningizcha, u sizni bezovta qilmaydi.

“Yulduzli tunlar”ga oshno bo‘ling! Zero tuningiz osuda, hayotingiz charog‘on bo‘ladi!

Mohirbek QO‘CHQOROV,
jurnalist



ENG ILG‘OR HAMSHIRALAR – TERMIZDA

Termiz harbiy gospitalida “Eng ilg‘or hamshira” ko‘rik-tanlovining Mudofaa vazirligi bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda Termiz, Qarshi, Samarqand, Farg‘ona, Nukus hamda Markaziy harbiy klinik gospitallarida o‘tkazilgan bosqich bellashuvlarida g‘olib bo‘lgan olti nafar hamshira o‘zaro bellashdi.










Ko‘rik-tanlov avvalida Mudofaa vazirligi tibbiy ta’minot boshqarmasi boshlig‘i tibbiy xizmat polkovnigi Nosir Fozilov so‘zga chiqdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, o‘tgan yillar davomida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan vazirlik harbiy gospitallari va tibbiyot muassasalari infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar rejasi amalga oshirilgan. Unga muvofiq, eski binolar o‘rniga yangilari qurilgan, davolash-diagnostika bo‘limlari jahon standartlariga javob beradigan to‘liq tibbiy asbob-uskunalar bilan ta’minlangan.





Bu esa murojaat qilayotgan bemorlarning to‘liq davolanishlariga asos bo‘lmoqda.

Boshqarma boshlig‘i mutaxassislarning malaka va bilimi borasidagi yangilanishlar haqida gapirar ekan, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga sifatli xizmat ko‘rsatishda kichik hamda o‘rta tibbiyot xodimlarining alohida o‘rni borligini e’tirof etdi. Ular bajarayotgan vazifa, egallagan bilim va tajribasi harbiy gospitallar faoliyatini belgilaydigan muhim mezon, dedi jumladan.

Besh shart bo‘yicha o‘zaro bellashuvda harbiy gospitallarning eng ilg‘or hamshiralari chiqishlari, ixtisoslik bo‘yicha bilim va amaliy tajribalarini Mudofaa vazirligi mas’ullari, ko‘p yillik tajribaga ega shifokorlar, Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va madaniyat departamenti, Yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyati kengashi vakillaridan iborat hakamlar baholadi.

Joriy yilda o‘tkazilgan ko‘rik-tanlov o‘tgan yillardagidan farq qilib, unda mutaxassislik bo‘yicha savol va sinovlarga katta o‘rin berilgani jarayonda ko‘zga yaqqol tashlandi. Ishtirokchilar o‘zlari va faoliyat yuritayotgan muassasa haqida salomlashuv va tanishtiruv deb nomlangan birinchi shartda erkin chiqish qildi. Ikkinchi shartda ular turli ko‘rinish va holatlarda jarohat olgan bemorlarni qabul qilish, holatni baholash, tashxis qo‘yish, dori-darmon, tibbiy asbob-uskunalar yordamida muolaja qilish shartini ham nazariy, ham amaliy bajardi.

Uchinchi shart ham o‘ziga xos bo‘lib, klinik imtihon tarzida o‘tkazildi. Unda hamshiralar shoshilinch tez tibbiy yordam, dezinfeksiya, sterilizatsiya, terapiya, jarrohlik kabi yo‘nalishlarda nazariy bilimlari, ya’ni odam anatomiyasi va fiziologiyasi, kasalliklar etiologiyasi, klinik belgisi, hamshira tashxisi va profilaktik chora-tadbirlar bo‘yicha, amaliy bilimlari – hamshiralik ishi faoliyatidagi ko‘nikmalarni amalda ko‘rsatib berishi, tibbiy asbob-uskunalar bilan tanish ekanligi va ulardan foydalanish darajasi bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. To‘rtinchi va beshinchi shartlar ijtimoiy-siyosiy va tibbiy bilimlar bo‘yicha tezkor savol-javobdan iborat bo‘ldi.



Tomoshabinlarning olqishlari va ruhiy qo‘llab-quvvatlovi bilan bir necha soat davom etgan bellashuv Mudofaa vazirligi tizimida kichik va o‘rta tibbiyot xodimlarining bugungi darajasi, bilim va ko‘nikmasi qay darajada ekanini ko‘rsatdi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, birinchi o‘rinni 50.31 ball to‘plab, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hamshirasi Mohibonu Hamidova egalladi. Ikkinchi o‘ringa 49.80 ball bilan Termiz harbiy gospitali hamshirasi Zarina Nodirova, uchinchi o‘ringa 46.23 ball bilan Farg‘ona harbiy gospitali hamshirasi Shohista Haydarova loyiq topildi.

Birinchi o‘rin sohibasiga kelgusi yil may oyida respublika miqyosida o‘tkaziladigan “Eng ilg‘or hamshira” ko‘rik-tanlovida ishtirok etish yo‘llanmasi berildi.

Mohibonu Hamidova:

– Bu yutug‘imni, avvalo, menga ta’lim-tarbiya bergan ustozlarimning yutug‘i deb bilaman va ularga cheksiz minnatdorligimni bildiraman. Mening nazarimda, bugungi bellashuv juda jiddiy va hayajonli kechdi. Ishtirokchilarning barchasi katta tayyorgarlik bilan kelgani, o‘zi xizmat qilayotgan gospitalda haqiqatan eng ilg‘or va birinchi ekanligi bilindi. Sahnada, odamlar, ustozlar qarshisida kishini biroz hayajon bosar ekan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, e’tibor bergan bo‘lsangiz, egallagan ballarimiz orasida uncha katta farq yo‘q.

Menga ushbu ko‘rik-tanlovning respublika bosqichiga yo‘llanma berishdi. Demak, oldimda yana katta bir dovon bor. O‘ylaymanki, unga ham jiddiy tayyorlanib, hamkasblarim va Mudofaa vazirligi sha’nini ishonchli himoya qilaman.

Furqat ERGASHEV,
“Vatanparvar”



1 Mohibonu Hamidova

2 Zarina Nodirova

3 Shohista Haydarova



Faxriylarni e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, harbiy soha rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ustozlarning boy hayotiy tajribasidan keng foydalanish barkamol avlod tarbiyasidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.



Faxriylar hayoti – yoshlarga o‘rnak



Xususan, davlatimiz rahbari ham joriy yilda o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, aynan ustoz-faxriylarning tajribasiga tayanish muhim ekaniga to‘xtalib, tegishli vazifalarni belgilab bergan edilar.

Ana shu topshiriqlarning ijrosi sifatida DXX Chegara qo‘shinlari qo‘mondonligi harbiy qism va bo‘linmalari tomonidan muntazam ravishda faxriylar va yoshlar ishtirokidagi davra suhbatlari, ma’naviy tadbirlar hamda uch avlod uchrashuvlari o‘tkazib kelinmoqda.

Farg‘ona Davlat universitetining “Tabiiy fanlar” fakultetida tashkil etilgan “Faxriylar hayoti – yoshlarga o‘rnak” mavzusidagi tadbirda ham talaba-yoshlar hamda DXX Chegara qo‘shinlari faxriylari kapitan M. Kenjayev, “Jasorat” medali sohibi katta serjant N. Rasulov, serjant B. Tojiboyev va A. Xorinov ishtirok etdi.

Vatanparvarlik tushunchasining asl mazmun-mohiyati, yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash mas’uliyati, qolaversa bugun Yangi O‘zbekistonda barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning faol ishtirokchisi hamda tinchlik va osoyishtalikning himoyachisi bo‘lish nechog‘li mas’uliyatli ekani to‘g‘risida so‘z yuritilgan ushbu tadbir davomida, yoshlar mardlik va jasorat tushunchalarining harbiylar hayotidagi o‘rni xususida o‘zlarini qiziqtirgan ko‘plab savollarga javob oldilar.

– Bugun yoshlarimizni ko‘rib, suhbatlashib, juda ham quvondim. Zero ular bizning davomchilarimiz, ertamiz egalari. Ularning keng dunyoqarashi, intellektual salohiyati va ziyrakligi berayotgan savollaridan ham shundoq sezilib turibdi. Xalqaro miqyosdagi ko‘plab tanlovlar va fan olimpiadalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan talabalarimizning yutuqlari esa bizga katta faxr bag‘ishladi. Albatta, yoshlarimiz orasida harbiylikka havasmandlari ham talaygina. Biz ularga sohani egallash borasida zarur tavsiya va maslahatlarimizni berdik, – deydi “Jasorat” medali sohibi katta serjant N. Rasulov.

Shu kabi uchrashuvlardan yana biri, Toshkent tumanidagi 26-umumta’lim maktabida bo‘lib o‘tdi. Unda DXX Chegara qo‘shinlari faxriylari iste’fodagi tibbiy xizmat polkovnigi X. Sagdullayev, podpolkovnik B. Adamov, mayor A. Abdullayev, shuningdek 26-, 28-, 29-umumta’lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari, “Vatan tayanchi” otryadi a’zolari hamda yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etdi.

Qiziqarli savol-javoblarga boy tarzda o‘tgan suhbat davomida, Chegara qo‘shinlari faxriysi, iste’fodagi tibbiy xizmat polkovnigi X. Sagdullayev tomonidan xizmat yillariga oid voqealarning hayotiy tarzda so‘zlab berilishi, yoshlarning harbiylik haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qildi.

Janubiy sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlayotgan Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi harbiy qismda o‘tkazilgan shu mazmundagi tadbir “Faxriylar – faxrimiz” deya nomlanib, unda chegaraoldi hududidagi 35-umumta’lim maktabining “Yosh chegarachilar” klubi a’zolari ishtirok etdi. Tadbirda so‘z olgan iste’fodagi podpolkovnik Sh. Safarov bugun harbiylar va ularning oila a’zolari uchun yaratilayotgan sharoit va qulayliklar, berilayotgan imtiyozlar xususida to‘xtalib, Vatan himoyasiga bel bog‘lash uning har bir farzandi uchun muqaddas burch ekanini alohida ta’kidlab o‘tdi.

– Men maktabimizda tashkil etilgan “Yosh chegarachilar” klubi a’zosiman. Biz jamoamiz bilan birgalikda har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasida faol ishtirok etib kelmoqdamiz. Albatta, bu musobaqalar bizni ham jismonan, ham ruhan toblaydi. Orzum ham chegarachi bo‘lish. Bugungi uchrashuv orzularim tomon olg‘a intilishim kerakligini yana bir bor anglatdi, – deydi Davronbek Zaripov.

Tadbir yakunida ishtirokchi yoshlarga kitoblar jamlanmasi sovg‘a qilindi.


Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari



Fikr

Vatanparvarlikning ma'naviy olami

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, o‘z taraqqiyot yo‘lini aniq belgilab oldi. Demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bir qatorda yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.



O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o‘zini oqlagan xalqaro tajribalarini chuqur o‘rganish va kerakli jihatlarini qabul qilish ham davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir.

Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, insonlar, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga xalqiga, ona yurtiga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi ma’naviy merosimizda salmoqli o‘rin tutadi. Xalq maqollari, hikmatlar, ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bizlarni ezgulik, mardlik, halollik, to‘g‘rilik va poklik sari chorlashi bilan bir qatorda Vatanga muhabbatli, o‘z xalqiga sadoqatli bo‘lishga da’vat etadi. Dostonlarimiz durdonasi sanalmish “Alpomish” dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etuvchi ajdodlarimizning qahramonlik qo‘shig‘i sanalib, u asrlar davomida Vatan himoyachilarining irodasini mustahkamlash uchun xizmat qilgan.

Xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz.

Vatan ozodligi yo‘lida jonfido qilgan Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi ajdodlarimizning jasorati xalqimizning ona Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatining yorqin ifodasi sifatida olamga mashhur. Ular hayoti va matonati tahsinga loyiq. Jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga hissa qo‘shgan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, al-Beruniy kabi alloma bobolarimiz uchun Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik juda katta ahamiyat kasb etgan.

Shu sababli ular doimo o‘z ism-shariflarini tug‘ilib o‘sgan yurt nomi bilan qayd etib, Buxoriylar, Termiziylar, Samarqandiylar, Shoshiylar, Xorazmiylar, Nasafiylar, Farg‘oniylar, Marg‘inoniylar bo‘lib olamga tanilgan. Ajdodlarimizning ma’naviy merosi, hayot tarzi, ular haqidagi rivoyat va hikoyatlar barchasi bugungi kunda barkamol avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim manba, ibrat-namuna timsoli hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, harbiy bilim yurtlarida vatanparvarlik tarbiya tizimi kursantlarda faol hayotiy pozitsiyani aniq maqsadga muvofiq shakllantirishni, ularning davlat tafakkurini rivojlantirishni, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga muvofiq, muhim davlat vazifalarini hal etishga tayyorligini ta’minlashi kerak. Bu esa yoshlarimizni bilim, tajriba va shaxsiy manfaatlar fuqarolik burchining pozitsiyasi, Vatan taqdiriga daxldorlik va davlat manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan professional faoliyatga tayyorlashga ko‘maklashishi kerak.

Shundan kelib chiqqan holda, Yurtboshimiz tomonidan “Yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb ta’kidlagani yoshlarga qanchalik e’tibor qaratilayotgani ko‘rinib turibdi.

Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatimizdagi yoshlarning amaliy faoliyatida ifoda etiladi. Bugungi yoshlarimiz g‘oyaviy jihatdan chiniqqan vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan va har qanday yo‘nalishda o‘z munosabatini bildira oladilar. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, xuddi shu yoshlar kuchli hissiy bilish qobiliyatiga egadir. **Bugungi kunda yoshlar orasida milliy g‘urur, or-nomus va ma’naviy-ruhiy holatlar ustunligida haqiqatni aytishdan cho‘chimaslik, mavjud qiyinchilik va muammolarni ochiq-oydin bayon etish imkoniyati mavjud.**

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviy hayot sohasida vujudga kelayotgan muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilish masalalarini dolzarblashtirmoqda. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelyapti. Har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Shu o‘rinda, biror mamlakat bu voqelikdan chetda turib, ijobiy natijalarga erisha olmasligini anglash qiyin emas.

Jamiyatda har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda, ya’ni ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radiotelevideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda.

Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat, ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan har qanday kichik xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimiz, dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bobur kabi milliy qahramonlarimizning ko‘rsatgan jasoratini doimo o‘rnak sifatida ko‘rsatishdan biz doimo faxrlanamiz.

Xulosa qilib aytishimiz kerakki, jamiyatda har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radiotelevideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda.

Podpolkovnik
Alimardon O‘TAPULATOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
sikl boshlig‘i

Kuz ham so‘nggi oyga qadam qo‘ydi. Toshkent shu damlarda juda tarovatli. Yo‘l chekkalari va bog‘lardagi daraxtlarni kuzatib ularni o‘zimizga – odamlarga o‘xshataman. Ayrimlari keksalikka erta bo‘yin egibdi, ba’zi muazzam daraxtlar asta-sekin yaproqlari tusini o‘zgartirmoqda, yana shundaylari ham borki yam-yashil, kuz haqida o‘ylayotgani ham yo‘qdek tasavvur uyg‘otadi.



ULUG‘VOR FASL VOQEALARI

Kuz insonni o‘yga toldiradi, afsus-nadomatga o‘xshagan tuyg‘ular ko‘ngildan kechadi. Bajara olmagan ishlaring, yetolmagan armonlaringni o‘ylaysan ammo zinhor so‘ralmay qolgan uzrlardan afsus chekmaysan, yodingga ham kelmaydi.

Kuz baribir go‘zal, ulug‘vor fasl. Asli umrning, tiriklikning har lahzasi go‘zal. Ulug‘vor go‘zallikdan bahra olib yashash barchamizga nasib etsin.

O‘G‘ILNING NONI

Er-xotin chaylada choy ichayotib, dala yo‘lidan o‘tgan-qaytganni dasturxonga taklif qiladi. Dasturxonda odatdagi qora bug‘doy nondan tashqari ikkita ushatilmagan qip-qizil kulcha bor. O‘tib-qaytayotgan yo‘lovchilar ham begona emas, o‘z eldoshlari.

Ularning ra’yini qaytarmay bir piyola choy ichgani o‘tirgan insonga sochlari erta oqargan erkak mamnun bo‘lib deydi:

– Ertalabdan katta o‘g‘lim yo‘qladi. Bozorga tushgan ekan, ikkita yumshoqqina, yog‘li kulcha olibdi bizga, dedi.

– Yoniga bir kosa qaymoq bilan uzumi ham bor edi, – deb gapga qo‘shiladi ayol, – otasi bolalaringga olib bor, hali navro‘zg‘or bo‘lsangiz, deb o‘ziga qaytarib berdi. Kulchani qoldir, mayli, dedi. Oling, kulchadan ushatib yeng, bo‘rsildoqqina, hali issiq tafti ketgani yo‘q.

Yo‘lovchi ularni tinglab jilmayadi, katta o‘g‘ilni ota-onasini yo‘qlagani uchun maqtaydi va dasturxondagi ushatilgan qora nondan bir tishlam olib yeb, o‘rnidan qo‘zg‘aladi.

Er-xotin kuni bo‘yi o‘tgan-qaytganni chaylaga taklif qildi. Katta o‘g‘il keltirgan ikki dona kulcha bilan kun ham bir boshqacha kechdi.

Ular bu yerda o‘g‘illari uchun kartoshka, qovun-tarvuz, qovoq yetishtirar, kuzda hosil yig‘ishtirib olinguncha dalada yashar edilar...

SOVCHI

Lola qiziga kelgan sovchilarga nima deyishni bilmay ikkilanib qoldi. Qizining ham ko‘ngli bordek. Biroq... negadir ko‘ngli chopmayapti. Bugun yigitning onasi ham keldi, battarroq yuragi g‘ashlandi. Kulganida ham ko‘zlari allaqanday sovuq chaqnar ekan.

Ayol sovchilarni ayvonga boshladi. Mehmonlar xohishiga ko‘ra shu yerda o‘tirdilar. O‘g‘il maqtaldi, qiz maqtaldi. Quda bo‘lmish xotin qizni kelin emas, farzand o‘rnida qabul qilishini aytganida dasturxon atrofida o‘tirganlar “ana”, deya qoyil qolgandek bir-birlariga qarab bosh silkib qo‘ydilar. Lola bir qarorga kelgandek jilmaydi, chunki rad etishga ham sabab yo‘q edi. Roziligini taom tortilganidan so‘ng ham aytsa bo‘ladi. Shu o‘y bilan oshxonaga yo‘naldi.

Bir lagan palov suzib, mehmonlar oldiga qo‘ydi. Mitti qora xumpar taom hidini tuyibmi quda bo‘lmishning oyog‘iga suykalib miyovladi. Ayol seskanib “voyy” dedi-yu, xumparni kuch bilan tepib yubordi. Ochiq ayvondan tepilgan mushuk bolasi jon achchig‘ida go‘dak yig‘lagandek chinqirdi, bint o‘ralgan orqa oyog‘ini sudrab qochishga urindi, qocholmadi, sudralib qoldi. Bint lahzalar ichida qip-qizil qonga bo‘yaldi. Lolaning rangi oqarib, shoshib pastga tushdi-da, xumparni avaylab qo‘liga olib, yonboshdagi uyga kirib ketdi.

U mehmonlar oldiga qaytganida o‘rtadagi osh sovib qolgan, ayollar so‘z qotmay jim o‘tirardi.

– Olinglar, osh ham sovub qolibdi, – dedi Lola o‘zini hech narsa bo‘lmagandek tutishga harakat qilib.

Ayollar uning qistovi bilan palovdan totingan bo‘ldilar.

– Kenja o‘g‘lim dard bilan ko‘p olishdi, – dedi mehmonlarga choy quyib uzatar ekan, ovozida allaqanday siniqlik bilan. – Dardlari aridi-yu, oyoqlari biroz oqsaydi. Do‘xtirlar tuzalib ketadi, deb umidlantirgan. Endigina o‘n yoshga to‘ldi. Bir hafta avval shu mushuk bolasini ko‘chadan topib keldi. Yig‘lagan, kiyimlari loy bo‘lib ketibdi. “Oyijon, xumpar menga o‘xshab oqsoqlanib yurar ekan, bolalar uni ko‘lmakka otib yuborishdi, yig‘lasa ham rahm qilishmadi...”, deb yana yig‘lab yubordi. Bolamning yig‘isiga zo‘rg‘a chidab, o‘zim ham yig‘lamoqdan beri bo‘lib, bolamni ovutdim. Mushuk bolani ham yuvib-tarab, qornini to‘yg‘azdim, yarasiga malham surib bog‘lab qo‘ydim. Endigina tuzala boshlagan edi. Siz... Yaxshi ham shu ishingizni bolaginam ko‘rmadi. U juda rahmdil, bunday shafqatsizlikka bardoshi yetmasdi.

Quda bo‘lmish sir boy bermasa-da, qizarib ketdi.

– Ha, endi, mushuk ham bir hayvon-da, odam emas-ku, oh-voh qiladigan. Yoshligimdan yoqtirmayman it-u mushuklarni...

Lola sovchi ayolning ko‘zlariga tik qaradi va dedi:

– Haqlisiz, bu bor-yo‘g‘i bir hayvon. Ammo ba’zan o‘sha hayvonlar odamlarning himoyasiga, mehriga muhtoj bo‘ladi. O‘zimiz kabi bir jonliga shafqat ko‘rsata olmasak, odamligimiz qayerda qoladi?! Qizim masalasiga kelsak... otasi xirmontepalik jo‘rasining o‘g‘liga royish bildirgan, menga ham ma’qul.

Oraga bir muddat sukunat cho‘kdi. So‘ng rad etilgan sovchilar dasturxonga yengil-yelpi fotiha o‘qib, qo‘zg‘aldilar. Ular ketganidan so‘ng qizi oshxonadan chiqib kelib, oyisiga qarab jilmaydi:

– Sal qolsa, Rahimjonning mushukchasi uchun sovchini bir yoqli qilar edingiz, a? Keyin, xirmontepaliklar qayerdan chiqdi?

– Jonim qizim, mittigina jonzotga shafqati yo‘q ayol, kelinga mehrli bo‘lishiga ishonmayman. Xirmontepa sovchining dilini og‘ritmay rad etishga bir bahona, xolos. Aslida ular ham so‘rattirgan.

Shu payt yonboshdagi uydan likonglab mushukcha chiqib keldi. Qiz uni qo‘llariga olib erkaladi:

– Mittivoy, bundan buyon sovchilik ishlariga sen boshchilik qilasan, odamlarni yaxshi tanitar ekansan.

Lola kulib yubordi.

Inobat IBROHIMOVA

Harbiy mutolaa

KITOBNI USTOZ BILGAN AZAMATLAR



Oddiy askar Sohibjon Zohidov



Oddiy askar Xurshid Suyunboyev



Oddiy askar Yodgorjon Kenjayev



Oddiy askar Foziljon Abdulhakimov



Oddiy askar Habib Baxtiyorov

Nukus garnizonidagi kutubxona har kuni o‘quvchi kitobxonlar bilan gavjum. Ayniqsa, askarlarning o‘quv mashg‘ulotidan keyingi asosiy vaqti kutubxonada, mutolaa bilan o‘tadi. O‘qilgan asarlarning muhokamasi esa qizg‘in tortishuvlarga aylanib, chetdan nazar solgan odamning e’tiborini tortmay qolmaydi. Ana shunday gurunglarning birida biz ularni suhbatga chorladik. Ochig‘i, hayron qoldik. Egniga harbiy libos yarashgan alpqomat yigitlar goh dostonlardan so‘z ochsa, goh “O‘tkan kunlar”ning mag‘zini chaqar, yana birovi jadidlar qoldirgan meros haqida jo‘shib gapirdi. Keling, yaxshisi, suhbatimizdan bir shingilini sizlarga havola eta qolay.

– Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani Yangiqo‘rg‘on qishlog‘idanman, – deydi oddiy askar Sohibjon Zohidov. – Bolaligimdan kitob o‘qishni odat qilganman. Bo‘sh vaqt topdim deguncha, tarixiy asarlar mutolaasiga kirishaman. 5-yoki 6-sinfda o‘qirdim. Ona tili o‘qituvchimiz Shiroq afsonasini so‘zlab berayotib, shunday degandilar: “Bizning yurtimiz mardlar yurti bo‘lgan. Sotqinlar o‘z yurtiga, xalqiga xiyonat qilmasa, Turon botirlarini hech kim yenga olmagan. Shiroq – haqiqiy qahramon. Sizlar ham u kabi Vataningizni seving!” Muallimning gaplari qalbimga o‘rnashdi. Ana o‘shanda men ham yurtimning haqiqiy himoyachisi bo‘laman, deb o‘z oldimga ulkan maqsad qo‘ydim. Yillar o‘tib, orzularim ushaldi. Bugun, armiya saflarida, shimoliy sarhadlar himoyasida, Vatanim oldidagi yigitlik burchimni o‘tamoqdaman.

Turkman shoiri Maxtumqulining she’rlarini yod olib yuraman. Boshqa safdoshlarimga ham uning “Adolat yaxshi” nomli she’rini o‘qib ko‘rishlarini tavsiya qilaman. Kitob tanlamayman. Barcha kitob – asli bir ustoz. Tarixiy asarlardan tarixni o‘rganamiz, huquq kitoblaridan qonunlarni. Safdoshlarim orasida kitobsevar do‘stlarimning borligi esa meni yanada quvontiradi.

– Sirdaryo viloyatining Guliston shahridanman, – deya o‘zini tanishtirdi oddiy askar Xurshid Suyunboyev. – Mahalla yoshlar yetakchisining tavsiyasi bilan armiyada xizmat qilishga ahd qilganman. Bundan judayam xursandman. Chunki armiya meni qaytadan tarbiyalab, hayotimda yangi sahifalar ochilishiga sabab bo‘ldi. Harbiy qism kutubxonasida men o‘qimoqchi bo‘lgan ko‘plab adabiyotlarni ko‘rib, quvondim. Kuni kecha, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” nomli kitobini tugatdim. Asar qahramonlaridan biri bo‘lgan Robiyani yaxshi ko‘rib qoldim. Nazarimda men Kimsan edim. Men o‘qigan har bir kitobimni tahlil etishda, avvalo qahramon obrazida o‘zimni ko‘raman, uning vaziyatini his qilishga urinaman. “Ikki eshik orasi” kitobidan chiqargan xulosam shuki, noto‘g‘ri qaror alaloqibat, inson hayotiga xavf soladi, qurbonliklarga sabab bo‘ladi.

Suhbatdoshim oddiy askar Yodgorjon Kenjayev:

– G‘urumsaroy haqida eshitganmisiz? – deya o‘z so‘zini boshladi va tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i haqida to‘lqinlanib gapira ketdi. Aytishicha, G‘urumsaroy Namanganning Pop tumanida joylashgan qishloqlardan biri bo‘lib, bahavo joylar ekan. Odamlari ham samimiy, sodda, mehnatkash.

– Qishlog‘imiz dunyoga tanilgan, – deydi faxrlanib askar. – G‘urumsaroy kulolchilik maktabi ustazodalari o‘zbek hunarmandchiligini dunyoga tanitmoqda.

Askar yigit tug‘ilib o‘sgan makoni haqida so‘zlar ekan, ko‘z oldimda, g‘urumsaroylik kulollarning ishlari bir-bir o‘ta boshladi. Askar bilan uzoq suhbatlashdik. Kitobxonlarning nutq madaniyati ham o‘zgacha bo‘ladi-da! Askarni tinglab, qishloqning so‘lim bag‘rini his etganday bo‘ldim.

– Qishlog‘imizda harbiy qism joylashgan. Kichkinaligimdan askarlarni ko‘rib, ularga havas qilib ulg‘ayganman. Mana bugun men ham Vatan himoyachisiman! Bilasizmi, harbiylik hayot yo‘limni to‘g‘ri belgilab olishim uchun mayoq vazifasini o‘tayapti. Yana bir gap, kitobga mehrim oshdi. Hozirgina Hakim Sattoriyning “Amir Temur sevgan yurt” nomli kitobini tamomladim. Undan oldin Hamdam Sodiqovning “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati” nomli kitobini o‘qib chiqdim va qanday buyuk va jasoratli sarkardaning izdoshi ekanligimdan faxr hissini tuydim. Bu insonning har bir fazilati-yu sifatini o‘zlashtirsam, u kabi dovyurak bo‘lsam deyman. Temur bobomiz nafaqat harb ishlarida qudratli bo‘lgan, balki bunyodkorlik ishlariga katta e’tibor qaratgan, ilm-fan sohasida ham rahnamolik qilgan yurt egasi sanaladi...

Tarix bir maktab bo‘lsa, buyuklar shu maktabning ustozlaridir, degan jumlalarni o‘qiganim yodimda. Har bir yurt o‘g‘loni Amir Temur kabi vatanparvar va komil inson bo‘lmog‘i lozim.

Yodgorjonning fikrlari hayratimni oshirdi. Yoshlar kitob o‘qimaydi, deymiz. Yo‘q, unday emas. Ular kitob o‘qishyapti, o‘qigan asarlarini tahlil qilib, bugungi kun bilan qiyoslashyapti. Aslida bu eng yaxshi natija!

Oddiy askar Foziljon Abdulhakimov ham tarixiy asarlarni sevib mutolaa qilarkan. U Shahobiddin Muhammad Nasaviyning Jaloliddin Manguberdi haqida yozib qoldirgan kitobidan so‘z ochdi:

– Xorazm arsloniga mo‘g‘ullar tan beradi. “Mardlarning mardi ekan, haqiqiy bahodir ekan” deya ta’rif berishadi. Sind daryosi bo‘yida jangga kirib, yutqazgan bo‘lsa-da, Chingizxondek sarkardaning e’tiboriga tushadi va u o‘g‘illariga qarata “Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan hali ulug‘ ishlar va qiyomatli isyonlar keladi”, deydi. Tarixiy kitoblarni o‘qib, ruhlanaman. Shu kungacha 7 ta katta va kichik ulug‘ ajdodimiz haqidagi asarlarni o‘qib tamomladim. Bundan tashqari, badiiy va huquq yo‘nalishidagi adabiyotlarni ham o‘qiyapman. Chunki prokuror bo‘lishni niyat qilganman.

– “Alpomish” dostonini tinglab ulg‘ayganmiz, – deydi yana bir kitobxon oddiy askar Habib Baxtiyorov. – O‘qishga kirolmay, tushkunlikka tushgan vaqtim, dadam: “Bolam, kitobingni o‘qi, hammasi yaxshi bo‘ladi”, deya tasalli bergandilar. Dadajonimning gaplari turtki bo‘lib, ko‘proq mutolaaga berildim. Natijada Chirchiq davlat pedagogika universitetiga o‘qishga kirdim. Sirtqi yo‘nalishda tahsil olardim. Keyin o‘qishdan akademik ta’til olib, harbiy xizmatga keldim. Orzularim ko‘p. Xizmatdan so‘ng sohamning yetuk mutaxassisi bo‘lish uchun maqsadlar sari harakatni boshlayman.

Suhbat yakunlandi. Chunki askarlarning vaqti chegaralangan. Kundalik rejaga muvofiq, biri postga otlanadi, yana biri sport bilan shug‘ullanadi. Xullas, qizg‘in harbiy hayot talabi shunday.

Yurtimizning taniqli yozuvchisi Erkin A’zam o‘z intervyularidan birida: “Adabiyotni sevgan, kitobni ko‘p o‘qigan odam boy-badavlat bo‘lmasligi mumkindir, lekin kam bo‘lmasligi aniq”, deya muxlislariga tilak bildirgan ekanlar. Biz ham suhbatimiz yakunida askarlarga shunday ezgu tilak aytib ular bilan xayrlashdik.

Shohista ABDURAHMONOVA,
Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Voqeiy hikoya



TALABA

Hovlidagi o‘rindiqda xayol surib o‘tirgan Mamasoli aka tashqaridan kirib kelgan o‘g‘li Ismoilga ko‘zi tushdi-yu, kayfiyati buzildi. Boshi egik yigit otasiga yaqinlashar-yaqinlashmas uning ta’nali so‘zlari vujudini titratib o‘tdi.

– Turishingga qaraganda, yana o‘qishdan yiqilgan ko‘rinasan, shundaymi?

– ...

– Sen omadsiz bola chiqding, tengqurlaring institutni bitiryapti. Sen bo‘lsa... omadsiz...

– Dadajon, albatta...

– Yaxshisi, ko‘zimga ko‘rinma!

Mamasoli aka qaddi egilib, uy ichiga kirib ketayotgan o‘g‘lining ortidan achinish va alam bilan qovoq uygancha qarab qoldi. Hozir xotini Xolida opa gaplarini eshitib turganida, albatta uni koyigan bo‘lardi, xayolidan o‘tkazdi u. Xotini doim o‘g‘illaringizga qattiq gapirasiz, degani-degan. Axir uch yildan buyon tayyorlana-tayyorlana o‘qishga kirolmasa, qanday qilib yaxshi gapirsin? Katta o‘g‘li ham, qizi ham birinchi yiliyoq talaba bo‘lgan, ikkisiyam oliygohni bitirib, maktabda o‘qituvchilik qilyapti. Qizini uzatdi, hademay, kattasi Isroilning to‘yi. Kenjasi bo‘lsa... birorta hunarmandga shogird tushgandayam, uch yil ichida yaxshigina kasb-korga ega bo‘lardi. To‘g‘ri, bog‘ parvarishida unga yaqindan yordamchi, mehnatdan qochmaydi, ammo qo‘li bo‘shadi deguncha kitobga yopishadi, xayoli talaba bo‘lishda.

– Dadasi, Ismoiljon keldimi? – qo‘shninikidan shoshilib chiqqan Xolida opa uy eshigi oldida turgan o‘g‘lining poyabzalini ko‘rib, eriga savol nazari bilan qaradi. – O‘qishi o‘xshabdimi, ishqilib?

– O‘xshamabdi? – zarda qildi xotiniga Mamasoli aka.

– Shunday deng, – Xolida opa bo‘shashgan ko‘yi ko‘ziga yosh to‘lgancha jim qoldi.

– Bolang omadsiz! Kenjatoyim, polvonim, deb ko‘proq erkalatsang, talaba bo‘lolmay yuraveradi.

– O‘g‘lingizning erka emasligini juda yaxshi bilasiz, – o‘pkasi to‘lib, e’tiroz bildirdi Xolida opa. – Hoynahoy, zahar-zaqqum gaplaringiz bilan bolani rosa ezgan bo‘lsangiz kerak.

– Nima qilay, o‘qishdan yiqilgan bolani senga o‘xshab erkalataymi?

– Ozgina taskin bersangiz bo‘ladi-ku. Buning o‘rniga har safar yeb-yutib qo‘yasiz, – ayol o‘g‘lining oldiga kirishga shoshilar ekan, ovozi qaltiragan ko‘yi o‘ziga-o‘zi gapirib ketardi. – Shunchalar bemehr ota bo‘ladimi. Bechora bolam otasidan qo‘rqqanidan kunduzi bog‘da ishlab, kechasi bilan dars qilib chiqadi. Omadi kelib qolar...

Mamasoli aka mustaqillikdan avval sovxoz garajida muhandis bo‘lgan. Allaqachon jamoa xo‘jaligi tarqab, o‘zining bog‘dorchilikka asoslangan fermer xo‘jaligiga boshchilik qilayotgan bo‘lsa-da, hali-hanuz “Men injiner bo‘lganimda...” deya og‘iz ko‘pirtirib gapiradi. Qachonlardir injiner bo‘lgani bilan faxrlanadi. Bolalari esa o‘qituvchilikni tanladi. Balki, bu yashab turgan joylari shahardan ancha uzoqligi bilan bog‘liqdir. Chunki qishloqdagi katta maktabda o‘qituvchilarga doimo ish bor. Ayniqsa, erkak muallimlarning o‘rni katta. Ismoil ham uch yildan buyon oliygohning matematika fakultetiga kirish uchun harakat qiladi. Mana, bu yil ham...

– Bo‘ldi, o‘qish-po‘qishingni yig‘ishtir, ikkinchi bor qo‘lingda kitob ko‘rmay, – kechki taomdan so‘ng dasturxon ustida o‘z qarorini aytdi achchig‘idan tushmagan ota. – Ustachilikmi, moshinalarni tuzatishmi, uylarni ta’mirlashmi, xullas shogird tushib, hunar o‘rganasan. Shu ishlarning birortasiga qo‘ling kelishib qolsa, chetga chiqib pul ishlab kelasan.

– Mayli, dada, siz nima desangiz shu. Ammo... keyingi yil ham o‘qishga topshirishimga ruxsat bersangiz bo‘lgani.

– Qo‘lingga kitob olmay, tayyorlanmay, topshirsang topshiraver. Lekin hunar o‘rganishing shart. Qo‘ling bo‘sh paytlari bog‘ga qaraysan.

– Otasi, bu qadar qattiqqo‘l bo‘lmang, unga yana bir imkon bering, – eriga umid bilan qaradi Xolida opa. – Keyin bolamni hech qachon qora ishchi bo‘lib, chet ellarda yurishini istamayman, yubormayman ham.

– Musofir bo‘lmaguncha, musulmon bo‘lmaydi, deyishadi, xotin. Qanchadan qancha yigitlar xorijda ishlab kelyapti. Qiyinchilik ko‘rsa odam bo‘ladi.

– O‘g‘illarim chetga chiqqan taqdirda ham ziyoli bo‘lib, sohasi bo‘yicha davlat tomonidan yuboriladigan ishlarda ishlasa, mayli, lekin...

– Men aytadigan gapimni aytdim! – zarda bilan ayolining gapini bo‘ldi Mamasoli aka. – Sen ertadan harakatingni qil, – o‘g‘liga o‘qdek nigohini qadadi u. – Birorta hunarning etagini tut...

Ismoil otasining ra’yiga qarshi bormadi, uy ta’mirlovchi usta yigitlarga qo‘shilib, xonadonlarni zamonaviy ta’mirlashni o‘rgana boshladi. Har bir qadami ota nazoratida. Biroq ko‘ksida bosh ko‘tarib turgan maqsadidan chekinmadi. Otasiga bildirmagan holda kitob uning hamrohi bo‘ldi, o‘qishga tayyorgarlikni to‘xtatmadi...

Shoir “Omad deganlari asli bor narsa”, deganidek Ismoil to‘rtinchi, beshinchi yili ham o‘qishga kira olmadi. Bu orada akasi Isroil farzandli bo‘lib, yangi qurilgan hovliga ko‘chib ketdi. Uylanish navbati Ismoilniki. Uning ko‘z ostiga olgan qizi bor. Yon qishloqlik Xumora bilan bir-birlarini yoqtiradi. Biroq u institutda tahsil olyapti. Ota-onasi qizini oliy ma’lumotli yigitga berishni istaydi. Xumora esa Ismoilni kelajakda ziyoli bo‘lishiga, orzu qilgan kasbida ishlashiga ishonadi.

– Juda yaxshi odamlar ekan, mehmondo‘st, xushmuomala, – sovchilikdan qaytgan Xolida opa to‘lib-toshib Mamasoli akaga gapira ketdi. – Er-xotin muallimlik qilisharkan. Xonadonlari ozoda, pokiza. Qizimiz o‘qishini bitirib olsin, deyishdi.

– Berish niyati bo‘lsa, boshidan bilinadi. O‘qimagan o‘g‘lingga bergisi kelmasa, ovora bo‘lmaganing ma’qul.

Erining gapidan kayfiyati ko‘tarinki Xolida opa bir zumda bo‘shashdi-qoldi.

– Bu nima deganingiz, qizi borning nozi bor. Bermaymiz degani yo‘q, kutinglar degandek qildi.

– Senga kutinglar deydi-yu, ertasiga boshqaga berib yuboradi. O‘qimagan o‘g‘lingga...

– Namuncha o‘qimagan degan so‘z og‘zingizdan tushmaydi, – rangi o‘zgardi Xolida opaning. – Bolam niyatidan qaytgani yo‘q, albatta o‘qiydi! Keyin yoshlarning bir-birida ko‘ngli bor, bir-birini tushunadi.

– O‘qisin-o‘qisin, chol bo‘lguncha talaba bo‘lib qolar! – kesatiq gap bilan xotinining battar jig‘iga tegdi Mamasoli aka. – Qatnayver-chi, zora qizlarini bersa.

– Qatnayman, kerak bo‘lsa o‘n marta, yuz marta sovchi bo‘lib boraman. O‘g‘lim uchun ostonasiga poyandoz bo‘lib, yotib olaman...

Xolida opa aytganini qildi, sovchilikka qatnashdan charchamadi. Bo‘lajak qudalar qizlarining ko‘ngliga quloq tutdi, yigitni obdan surishtirdi. Kelishgan, mehnatkash, qo‘lida hunari bor, ilmli bo‘lishga ishtiyoqi baland... Shunday qilib, o‘rtada rishta bog‘landi. Ko‘p o‘tmay, ikki yoshning to‘yi bo‘lib o‘tdi.

– Bu yil talaba bo‘lsangiz, institutga birga qatnaymiz, – kitobga mukkasidan ketgan Ismoilga mehr bilan termildi Xumora.

– Aytganing kelsin. Bir yildan keyin sen bitirasan, keyin yolg‘iz o‘zim o‘qiymanmi? Mening yoshimdagi talaba bo‘lmasa kerak. Qani endi sirtqi bo‘lim ochilsa, ishlab o‘qirdim.

– Sirtqi bo‘lim ochiladi, degan gap bor. Balki ochilib qolar. Nima bo‘lganda ham niyatingizga yetsangiz bo‘lgani.

Kelin-kuyovning orzusi amalga oshmadi, Ismoilga talaba bo‘lish nasib etmadi yana. Xumora oliygohni bitirdi-yu, o‘g‘ilchali bo‘ldi. Ikki yosh qanchalar baxtli bo‘lmasin, Ismoilning ko‘ksidagi kemtiklik nari ketmasdi. Bu orada Mamasoli aka kasal bo‘lib, bog‘ ishlariga aralashmay qo‘ydi. Akasining onda-sonda yordami bilan bog‘larni uddalash Ismoilga qoldi. Shunday bo‘lsa-da, yigit o‘qishni istar, talaba bo‘lishdan umidini uzmasdi.

– O‘g‘lim, oilalisan, yoshing ham katta bo‘lib qoldi, endi o‘qishni unut, – Mamasoli aka nasihat qildi Ismoilga.

– Oilangdan, bizdan uzoqda to‘rt yil o‘qishingni tasavvur qila olmayapman. Bog‘larni yaxshi parvarish qilsang, daromadi katta bo‘ladi. Akang ikkingizga bemalol yetadi, qiynalmay yashaysizlar. Agar otam rozi bo‘lsin desang, aytganimni qil, oilangni, bizni o‘yla! Xudo xohlasa, bolalaring sen yetmagan orzuni amalga oshiradi, o‘qimishli bo‘ladi.

– Dada, shu yil oxirgi marta...

– Xayolingga ham keltirma! – o‘shqirdi Mamasoli aka. – Aslo rozi emasman!

Oliygohga allaqachon hujjat topshirib qo‘ygan Ismoil otasiga bu haqda og‘iz ochmadi. Mana, sinov oni yetib keldi, ertasiga imtihon. Ammo qanday qilib uning har bir harakatini kuzatib turgan otasi oldidan kiyinib chiqib ketadi? Buning aslo iloji yo‘q. Shunda akasining yordami bilan muammoga chora topildi. Isroil imi-jimida ukasining kiyimlarini mashinasiga joylab, bog‘da uni kutib turadigan bo‘ldi. Ismoil tong sahar ishchi kiyimda ketmon ko‘tarib dalaga yo‘l oldi.

– Tinchlikmi, ertalabdan ketmon ko‘tarib? – bir narsani sezgandek o‘g‘liga sinchkov tikildi Mamasoli aka.

– Ha, bog‘ga suv ochishim kerak, sug‘oriladigan joylar bor. Ertalab bemalol bo‘ladi.

– Unday bo‘lsa, yaxshi, omadingni bersin...

Imtihonlar javobi chiqdi, Ismoil yuqori ball bilan davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingandi. Mamasoli aka bu xabarni eshitib, bir muddat jim qoldi va ko‘zida quvonch yoshi ila o‘g‘lining peshonasidan o‘pdi. Bu otaning necha yillar davomida bolasining omadi kelmagani uchun ruhan ezilganidan dalolat edi...

* * *

Viloyatga taniqli, oliy toifali muallim Ismoil Mamasoliyevichdan tahsil olgan o‘quvchilar qator yillar davomida matematika fanidan respublika olimpiadalarida yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritdi. Ularning orzusi fidoyi ustozlari boshchiligida dunyo bellashuvlarida oliy o‘rinlarni egallash.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Profilaktika

Huquqbuzarlikka beparvolik – jinoyatga yo‘l



Kishilik jamiyati tarixan o‘zgaruvchan hodisa. Ayniqsa, oxirgi yuzyilliklar davomida insoniyat misli ko‘rilmagan darajadagi tezkor taraqqiyot va rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, aholining huquqiy ongi va madaniyati, turmush darajasi, mehnat unumdorligi ortib bormoqda.

Biroq zamonaviy axborot asri bo‘lishiga qaramasdan, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan qonunchilik hujjatlari huquqbuzarliklar ko‘lamining kamayishiga olib kelmadi, balki ularni sodir etayotgan soha vakillari ham taraqqiyot yutuqlaridan barcha qatori foydalana olishlari ma’lum bo‘lmoqda.

Bundan kelib chiqadiki, potensial huquqbuzar bu – o‘z muammolarini, xususan, moddiy boyliklarga bo‘lgan ehtiyojini boshqalar hisobiga hal etishni istaydigan odamgina emas. Bunday toifadagi shaxslar doirasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan omillar hamda sabablar ham, afsuski, juda ko‘p.

Ko‘rsatib o‘tilgan omillar butun dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ishlarga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi, deyish mumkin. Bundan keyin jinoyatchilikka qarshi kurashish faqatgina sodir etilgan jinoyatlarni ochish, huquqbuzarlarni topish, qonuniy jazo tayinlash va uni ijro etishdan iborat bo‘lib qolishi mumkin emas. Hatto sodir etilishi rejalashtirilayotgan huquqbuzarlikning oldi olinganda ham bu vazifani bajarishga juda kech kirishilgan deb hisoblash kerak bo‘ladi. Shu tariqa dastlab jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining kichik elementi sifatida paydo bo‘lgan huquqbuzarliklar profilaktikasi keyinchalik jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatidan ham yuqori turuvchi alohida va keng qamrovli faoliyat yo‘nalishiga aylandi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat keng qamrovli faoliyat yo‘nalishi sifatida tashkil etilgan taqdirdagina yaxshi samara berishi mumkin. Bu esa mazkur jarayonda barcha darajadagi davlat va nodavlat tuzilmalar hamda fuqarolarning keng ko‘lamdagi ishtirokini talab etadi. Ayni paytda ushbu zaruratni tushunib yetgan holda mazkur davlatlar aholisi ham huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ongli ravishda ishtirok etish istagini bildirdi.

Ushbu dasturlar orasida AQShda qabul qilingan “Sindirilgan oynalar” dasturi boshqa bir necha davlatlarda ham joriy etilgan. Mazkur konsepsiyaning asoschilari J. Vilson va G. Kelling bo‘lib, ular o‘z g‘oyalari mazmunini quyidagicha ifodalaydi: “Agar binoning bitta oynasi singan bo‘lsa va uni hech kim ta’mirlamasa, qisqa vaqt ichida binoning barcha oynalari ham sindiriladi, binoning o‘zi to‘liq xarobaga aylanadi va bu joy jinoyatchilar makoniga aylanadi”.

Kengroq qilib aytganda, ushbu konsepsiya mualliflari ko‘chalardagi tartib va ozodalikning mavjud emasligi deviant xulq-atvorning namoyon bo‘lishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Ya’ni tashqi tartibsizlik *(oynalar, elektr chiroqlarining singani, qarovsiz tashlab ketilgan avtomobillar, binolarning tashqarisi va yo‘llarning uzoq vaqt ta’mirlanmagani, chiqindilarning ko‘chaning istalgan joyiga tashlab ketilgani)* o‘sha hududda jamoatchilik nazoratining yo‘qligi, axloqsizlik va huquqbuzarlik uchun ta’sir choralari qo‘llanilmasligi hamda davlat organlari va o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalari mazkur holatga beparvo munosabatda bo‘lishlaridan dalolat beradi. Bunday belgilar esa odamlarning ong ostida ushbu hudud nazorat ostidan tashqari bu yerda davlat va jamoat hokimiyatining kuchi yo‘q degan fikrni shakllantiradi. Agar bitta oyna singan va bu hech kimni bezovta qilmayotgan bo‘lsa, demak, ikkinchi, uchinchi va boshqa oynalarni ham sindirish mumkin. Shu tariqa odamning ichidagi yashirin deviant xulq-atvor uning xatti-harakatlariga ko‘chadi.

Shu o‘rinda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovlar ishlar haqida alohida ta’kidlash joiz. Bir necha o‘nyilliklarga qadar qaysi joyda odam nima qilishni istasa va shuni bajara olsa, bu yerda demokratiya bor, degan juda tor qarashlar ilgari surilgan davlatlardan farqli ravishda bizning xalqimizda azaldan “Bir bolaga – yetti mahalla ota-ona”, “Kasallikni davolagandan ko‘ra uning oldini olgan afzal”, degan purhikmat naqllar bor.

Albatta, bolaga yoki bo‘lg‘usi huquqbuzar-jinoyatchiga uning muayyan xatti-harakati g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoxud huquqbuzarlik ekani, uning oqibatlari tushuntirilsa, sodir etilishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizlikning oldi olingan bo‘ladi. Odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yon-atrofdagi odamlarga nisbatan mehr-oqibatli bo‘lish, ozgina bo‘lsa-da nomaqbul ish qilishdan uyalish hissi oilada farzand tarbiyasining asosini tashkil qilib keladi.

Aholining jamiyatda yuz berayotgan har bir hodisaga nisbatan o‘zining faol munosabatini bildirishi, xususan yon-atrofdagi xonadonlarda yuz berayotgan notinchlik, ko‘chada shubhali shaxslar paydo bo‘lgani yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol xabar berishi, shuningdek uy-joy va avtomobillarni qarovsiz qoldirmaslik, juda ko‘p miqdordagi naqd pul yoki qimmatbaho buyumlarni bank va lombardlarda saqlash odatining shakllangani ham potensial jabrlanuvchilar sonining kamayishiga xizmat qiladi.

Podpolkovnik
O‘lmasjon TURSUNOV,
Mudofaa vazirligi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi boshlig‘i

Armiya prokuraturasi

Ko‘rsatmalar berildi

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan nazorat hududidagi harbiy qism va muassasalarda o‘rganishlar davom ettirildi.

Jarayonda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ahvoli, bunda elektr va tabiiy gaz tarmoqlarining shaylik holati, energotejamkorlikni ta’minlash ishlari joyida o‘rganildi.

Shuningdek, hududlarda amalga oshirilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlariga e’tibor qaratildi.

Yakunda o‘rganishlar natijalari mas’ullar ishtirokidagi ochiq muloqot davomida muhokama qilinib, tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berib o‘tildi.

Adliya katta leytenanti
Daler RAHMATILLAYEV,
Termiz harbiy prokurorining yordamchisi

Targ‘ibot

TARAQQIYOT KUSHANDASI



Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo‘limi va Markaziy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi hamda Samarqand garnizonidagi harbiy qismda “Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida korrupsion holatlarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish” mavzusida profilaktik tadbir o‘tkazildi.

Unda so‘zga chiqqanlar korrupsiyaga qarshi kurash – davr talabi ekani, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda korrupsiyaning turli ko‘rinishlariga qarshi kurashish borasida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va chek qo‘yish, shu bilan birga uning oqibatlari, bunga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlar xususida batafsil fikr yuritdi.

Bu illatni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish borasida aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borishning ahamiyati tahlil qilindi va kelgusida bunday jinoyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tildi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Jarayon

Muammolar o‘rganildi

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan “Harbiy prokuror va yoshlar” uchrashuvi o‘tkazildi.

Unda yoshlarning qiziqishlari, muammolari va kelgusi rejalari o‘rganilib, ularni kasbga yo‘naltirish, o‘z orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarishlari yo‘lida har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, Tuproqqal’a tumanida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Turli masalalarga oid murojaatlarning ko‘pchiligi joyida hal qilindi. Yechimi vaqt talab qiladigan murojaatlar yuzasidan mutasaddi tashkilotlar mas’ullariga tegishli ko‘rsatmalar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

Adliya kapitani
Mirkamol QO‘CHQOROV,
Urganch harbiy prokuraturasi katta tergovchisi

ORGANIZM VA VITAMINLAR

Inson hayotida vitaminlar muhim rol o‘ynaydi. Chunki ular inson salomatligining umumiy holati, teri, soch va tirnoqlarning sog‘lom va ko‘rkamligi, ichki a’zolar faoliyatining me’yorda ishlashi va immunitet mustahkam bo‘lishi kabi vaziyatlarga javob beradi. Balki, shuning uchundir shifokorlar qish va bahor mavsumida organizmda vitamin tanqisligi kuzatilishi haqida doim bong urib keladi.

Ammo oziq-ovqat qo‘shimchalari va har qanday turdagi vitaminlarni qabul qilishda ularning ortiqcha miqdori jiddiy zarar yetkazishi mumkinligini unutmaslik kerak. Chunki e’tibor beradigan bo‘lsak, so‘nggi vaqtlarda har qanday sababga ko‘ra vitaminlarni qabul qilish urfga kirdi. Shamollab qoldingizmi? Vitamin iching. Ishda asabiylashyapsizmi? Bu sizda vitamin yetishmasligi bilan bog‘liq. Sochlaringiz to‘kilyaptimi? Sizga albatta vitaminlar kerak. Bir tomondan bunga asos bor. Ammo boshqa tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, vitaminlarni shifokor ko‘rsatmasisiz ichish hatto saraton rivojlanishiga olib kelishi mumkin ekan. Demak, organizmni vitaminlar bilan cheksiz rag‘batlantirish ularning yetishmasligidan ko‘ra xavfliroq sanaladi.

Nega aynan qish va bahorda?

Hatto 100 yil oldin ham odamlar qish faslida o‘simlik mahsulotlarini juda kam iste’mol qilgani uchun ularda vitamin yetishmovchiligi yuzaga kelishini bilgan. Ular bu davrni “ilik uzildi” deya atashgan. Shu bois kunlar isishi bilan katta-yu kichik ko‘kat va mevalarni ko‘proq iste’mol qilib, qish bo‘yi yo‘qotgan vitaminlar zaxirasini to‘ldirishga harakat qilgan.

Bugungi kunda sabzavot va mevalarni yilning istalgan vaqtida topish mumkin. Odamlar butun yil davomida yangi meva va sabzavotlarni iste’mol qilish imkoniyatiga ega. Yoki bo‘lmasa, har qanday vitamin komplekslarini xarid qilib iste’mol qila oladi.

Ko‘rish qobiliyatini yaxshilashi haqiqatmi?

Aslida, uzoqni ko‘ra olmaslikni vitaminlar bilan davolab bo‘lmaydi. Lekin ko‘rish qobiliyatini saqlab qolishda vitaminlarning ahamiyati katta. Faqat ular bemorning ahvoli va kasallik tarixini hisobga olgan holda mutaxassis tomonidan tanlanishi kerak.

Ko‘rish qobiliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan vitamin preparatlarining uchta katta guruhi mavjud: karotenoidlarga asoslangan; qorag‘atlarga asoslangan va aralash.

Ko‘zlar uchun muhim vitamin bo‘lgan beta-karotinning asosiy manbai sabzi bo‘lib, uning tarkibidagi lyutein ko‘zning to‘r pardasini himoya qiladi va sariq suyuqlik degeneratsiyasining rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Qorag‘atlar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va qon tomirlarini mustahkamlovchi xususiyatlari tufayli sog‘lom ko‘rishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, u yuqori qon bosimini pasaytiradigan, yallig‘lanishni kamaytiradigan va to‘r pardani kislorod bilan ta’minlaydigan arteriyalarning tiqilib qolishiga yo‘l qo‘ymaydigan antotsianinlarni o‘z ichiga oladi.

Agar soch ko‘p to‘kilsa...

To‘g‘ri tashxisni faqat shifokor qo‘yishi mumkin. Ammo, qoida tariqasida, immunitet va ishtaha pasaysa, soch to‘kilishi kuzatilsa, bu organizmda C vitamini yetishmasligining belgilaridan biridir.



U yoshartiruvchi vitamin deb ataladi. Bu boshqa bir qator vitaminlarning ta’sirini kuchaytiradi. Askorbin kislotasi tanqisligi juda oddiy aniqlanadi. Agar kunlik charchoq ortib borsa, uyqusizlik va tez-tez shamollash, milkning qonashi kuzatilsa, demak, taxminlar to‘g‘ri chiqishi mumkin.

C vitamini bilan bir qatorda A vitamini organizmning to‘g‘ri ishlashiga, teri va sochlarni mukammal holatda saqlashga yordam beradi. Uni dori-darmonlar shaklida qabul qilish shart emas, shunchaki ratsionga baliq, tuxum va sut qo‘shish kerak.

A vitamini inson organizmida oziq-ovqat bilan birga qabul qilinadigan pigmentlardan *(karotinlar)* hosil bo‘ladi – ular na’matak, sariq qovoq, tarvuz, sabzi, o‘riklarda ko‘p.

Biroq bitta muhim tomoni bor: A vitamini organizmda E vitamini yetarli bo‘lgandagina mukammal tarzda so‘riladi. E vitamini o‘simlik va sariyog‘, yong‘oqlarda mavjud. Bu kuchli antioksidant bo‘lib, u qarishni sekinlashtiradi va yurak devorlarini mustahkamlaydi.

D vitamini nima uchun foydali?



D vitamini boshqa vitaminlardan ko‘ra tabiatan gormonlarga yaqinroq, shuningdek kalsiy va fosfor darajasini saqlab turadi, suyak mustahkamligiga ta’sir qiladi, qon bosimi va yurak urish tezligini tartibga solishda ishtirok etadi.

U ultrabinafsha nurlari ta’sirida organizmda sintezlanadi. Inson kamdan kam yilning ko‘p qismini quyoshda o‘tkazadi va ultrabinafsha nurlaridan to‘liq miqdorda foydalanilmaydi, shuning uchun D vitamini qo‘shimcha sifatida qabul qilinadi.

Organizmda D vitaminining maksimal singishi A, E, C vitaminlari va B guruhi vitaminlari bilan birlashganda sodir bo‘ladi. D vitamini ko‘plab oziq-ovqatlarda mavjud va uni tabiiy shaklda ratsionga kiritish juda qiyin emas. Bu vitamin yog‘li baliq, pishloqlar, sariyog‘, sutda mavjud. Ammo shuni yodda tutish kerakki, ushbu mahsulotlarning barchasi kerakli miqdorning atigi 10 foizini ta’minlaydi, shuning uchun tanqislikni qoplash uchun D vitaminini ichish tavsiya etiladi.

B guruhi vitaminlari nima uchun muhim?

B guruhi vitaminlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular organizmda to‘planmaydi *(B_{12} vitamini bundan mustasno)* va shuning uchun organizmni doimo u bilan ta’minlash kerak. Bu vitaminlar asab tizimining barqaror ishlashi, kayfiyatni yaxshilash va ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun kerak. Ular quyidagicha farqlanadi:

• B_1 vitamini organizmning hayotiy jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi: asab tizimi va aqliy qobiliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

• B_2 vitamini – organizmning dvigateli. Insonning energiyasi va temperamenti unga bog‘liq; soch va tirnoqlarning o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi, terining holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Organizm tomonidan oz miqdorda ishlab chiqariladi, lekin to‘planmaydi. Mahsulotlarga issiqlik bilan ishlov berish jarayonida B_2 vitaminining o‘rtacha 15 foizi kamayadi.

• B_5 vitamini infeksiyalarni bartaraf etadi, organizmning himoya xususiyatlarini mustahkamlaydi, konsentratsiyani oshiradi, qarish va ajinlar paydo bo‘lishining oldini oladi.

• B_6 vitamini me’da shirasining shakllanishida ishtirok etadi, ateroskleroz, qandli diabetda lipidlar almashinuvini yaxshilaydi. Antitolalarni shakllantirishda ishtirok etish orqali immunitet tizimining ishonchliligini ta’minlaydi, soch o‘sishi va ko‘rish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

• B_9 vitamini ham ko‘pchilik odamlarda yetishmaydi, ammo u butun organizmning ishlashi uchun zarurdir. Chunki u yangi hujayralar o‘sishiga javobgar va miyaning samarali ishlashini ta’minlaydi, jigar va oshqozon-ichak trakti faoliyatini yaxshilaydi.

Terini vitaminlar bilan tezda to‘yintirsa bo‘ladimi?

Albatta, buning uchun sabzavot va mevalardan tayyorlangan niqoblar bilan terining rangi va sifatini yaxshilash mumkin. Yana bir samarali usuli inyeksiya jarayonlaridir. Ular epiteliy hujayralarida vitamin yetishmasligini butunlay yo‘q qilishga yordam beradi. Vitaminli kokteyllarga asoslangan mezoterapiya yoki biorevitalizatsiya terini tez va samarali yoshartirishi mumkin. Preparatning ta’siri ostida epidermis hujayralari yangilanadi. To‘qimalarda metabolik jarayonlar tezlashadi hamda zararlangan hujayralar faol ishlay boshlaydi va tiklanadi. Yoshartiruvchi ta’sirga ega shunga o‘xshash muolajalar profilaktika chorasi sifatida 30 yoshdan boshlab amalga oshirilishi mumkin.

Faqat to‘g‘ri ovqatlanish orqali barcha vitaminlarni olish mumkinmi?

Albatta, vitaminlar to‘g‘ri ovqatlanish orqali qabul qilinadi. Agar ratsion to‘g‘ri tuzilsa, organizmda asosiy elementlar yetarli bo‘ladi, faqatgina D vitamini bundan mustasnodir.

G. XODJAMURATOVA tayyorladi.

Hissiyot

Bolalar huzurida



Bolalar bilan gaplashishni yoqtiraman. Savollari sodda, samimiy, ammo ular uchun jiddiy, ahamiyatli. Yaqinda meni poytaxtdagi 248-umumta'lim maktabining 5-sinf o‘quvchilari huzuriga taklif qilishdi.

– Suhbat nima haqida ekan? – qiziqib so‘radim maktab ma'naviyatchisi Hilola Sagdullayevadan.

– Bu hafta adabiyot haftaligi, adabiyot haqida suhbatlashamiz.

O‘ylanib qoldim. Men... bolalar bilan adabiyot haqida gaplasha olamanmi?! Qisqa bir vaqt ichida ularning yodida qoladigan bittagina bo‘lsa ham ma'nili gap ayta olar ekanmanmi? Tayyorlanishim kerak ekan.

Uchrashuv kuni juda tez keldi. Va men adabiyot muallimasi Feruza Salxodjayeva bilan birgalikda uning sinfiga kirdim. Boshqalarni bilmadim-u, maktab, sinfxonalar meni allaqanday hayajonga soladi. Buning ustiga porloq yulduz kabi ma'sum nigohlar senga qadalib tursa.

Suhbatimiz kitoblar haqida bo‘ldi. O‘quvchilar yod olgan she'rlaridan o‘qib berdilar. Biram ko‘p savollar berdilar: “Birinchi o‘qigan kitobingiz?”, “Birinchi marta yozgan she'ringiz?” *(Ijodkor albatta shoir bo‘ladi, degan beg‘ubor ishonch bilan),* “Darslarda to‘polon qilganmisiz?”, “Qaysi fanni yomon ko‘rar edingiz?”, “Birinchi o‘qituvchingizni eslab turasizmi?”, “Jurnalistika og‘ir kasbmi?”, “Nega jurnalistikani tanladingiz?”

Savollarga jon-dilim bilan, rost javoblar berdim. Ayniqsa, birinchi o‘qituvchim haqida so‘raganlarida to‘lqinlanib ketdim. O‘sha bolaligim o‘tgan qishloq, maktabga olib boradigan kichik yo‘l yodimga tushdi. O‘quvchilarga birinchi o‘qituvchim Bozor Hasanov haqida gapirib berdim. Qor qalin tushganida ustozimizning yo‘l ochib borishi, ortidan tizilishib yurganimiz, maktabdan qaytayotganimizda bizga qo‘shilib, boladek kula-kula qorbo‘ron o‘ynaganlarini hikoya qildim. Va dedimki, u bizning otamiz, akamiz kabi edi, aynan otalargina, akalargina shunday baxtli lahzalarni tuhfa eta oladilar.

Jurnalistika bolalik orzum bo‘lganini aytganimda, hayratga tushdilar. Bu sohada erishgan eng katta yutug‘im “Oltin qalam” tanlovida sovrindor bo‘lganim ekanini aytganimda bolajonlarning olqishidan biram mutaassir bo‘ldim. Hatto mukofotlangan lahzalarimda ham bunchalik ta'sirlanmagan bo‘lsam kerak.

– Bu uchrashuvdan mamnun bo‘ldingizmi? – deb so‘radi ijodkor, fidoyi muallima Feruza Salxodjayeva.

– Kitoblar haqida ko‘p gaplashdik, bolalar nashrlari haqida gapirdim, – dedim. – Bugungi suhbatimizdan keyin qaysidir o‘quvchi o‘z kutubxonasini yaratishga bel bog‘lasa, kichkina bo‘lsa ham, to‘rttagina kitobdan iborat bo‘lsa ham yoki bittagina bolalar nashriga obuna bo‘lsangiz, men o‘zimdan rozi bo‘lar edim. Ishonaman, orangizda meni o‘z-o‘zimdan rozi bo‘lishimni istaganlar bir emas, bir nechtalardir.

– Bugungi uchrashuvimizdan juda xursandman, – dedi Feruza Salxodjayeva. – Ko‘pchilikni kashf qildim, yaxshiroq tanidim. Ayniqsa, eng to‘polonchi qizning ijodga, she'riyatga qiziqishi, she'rlar mashq qilishi meni hayratda qoldirdi. Bildimki, oramizda adabiyotni sevmaydiganlar yo‘q.

***

Azizlar, aziz ijodkorlar, keling, bolalar uchun vaqt topaylik, ularning huzuriga borish uchun bayramlarni kutmaylik. Ularni tinglaylik, ular bilan ular istagan mavzularda suhbatlashaylik. Shunda ular qalbini ochadi, ularni yaxshiroq taniymiz.

Yoz ta'tillaridan birida Qashqadaryo viloyatining olis tog‘ qishlog‘i G‘ilonda bo‘ldik. Bu yerdagi maktab tojik tilli. Kattalar biroz bo‘lsa-da, o‘zbek tilini biladi. Ayollar va bolalarning hammasi ham o‘zbekchani bilavermas ekan. Qarindoshlarning Behro‘z ismli o‘n yoshlardagi bolasi bilan “tarjimon” orqali gaplashdik. Uning yoniq ko‘zlaridan suhbatlashishni juda istayotgani bilinib turardi. Olisdan kelgan mehmonlar hammadan ham ko‘ra uni sevintirgani ayon edi. Shunday sevinch bilan kichkinalarni eshakka mindirdi, toshlar orasidan topgan burgut patini sovg‘a qildi, qizlarga nimalarnidir gapirib, maqtangisi keldi, ammo mehmon qizlar tojik tilini tushunmadi. Bolakayning aytadigan gaplari shu qadar ko‘pki, tushuntirolmay halak. Kechga borib esa: “Dada, menga o‘zbekchani o‘rgating”, deganini eshitib, negadir sevinib ketdim.

Bittagina kichik inson hayotiga o‘zgarish olib kirish ham ulug‘ ish. Kelajagimizga beparvo bo‘lmaylik.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Saboq

KO‘ZLARIMNI OCHGAN QIZALOQ



Ust-boshi yupungina ikki bola – bir qiz, bir o‘g‘il do‘konim oldidan o‘tib ketayotgandi. Kun salqin bo‘lishiga qaramay, ikkovi ham yupqa kiyingan, qizning oyog‘idagi shippak yirtilib ketgan edi. Ular haqida ko‘chaning tilanchi bolalari degan xayolga bordim. Eshikdan chiqib, qahr-g‘azab bilan:

– Bu yerda nima qilib yuribsizlar?! Kimning bolasisizlar? – dedim.

Qiz qo‘rqib ketdi chog‘i, yonidagi bolaning qo‘lidan mahkam tutib olgancha:

– Biz yomon bolalar emasmiz. Shu ko‘chada bir ishxona bor. Onam o‘sha yerda farroshlik qiladilar. Kechgacha hamma xonalarni tozalab, hovlini supuradilar. Onam kechga yolg‘iz qolmasliklari uchun ukam bilan ularning oldilariga borayotgandik...

Ko‘nglim buzilib, hozirgi vajohatimdan uyalgan bo‘lsam-da, sir boy bermay, ularni do‘konga chaqirdim:

– Hali kech tushishiga ancha bor, qani bu yerga kelinglar-chi!

Bolalar qo‘rqa-pisa do‘konga kirdi. Peshtaxta ortidagi stol-stulchaga taklif qildim. Ular onasiga biror yomonlik qilishim mumkinligidan qattiq qo‘rqqandi chamamda, aytganimga indamay bo‘ysunardi.

– Uyingiz bu tomonga yaqinmi?

– Ha, – qizcha xayrixohligimni sezdi chog‘i, o‘zini sal erkinroq qo‘yib javob bera boshladi.

– Huv anavi ko‘rinib turgan maktabning orqasidagi ko‘p qavatli uylarda yashaymiz. Biz o‘sha maktabda o‘qiymiz. Onam maktabimizda ham farrosh bo‘lib ishlaydilar.

– Bu bola ukangmi? – qizcha ham, bola ham birdaniga bosh qimirlatib tasdiq ishorasini berdi.

– Otang nima ish qiladilar?

Negadir bu savolimdan qizcha ham, bola ham ma'yus tortib, boshini egib oldi:

– Otam... Ular hech qayerda ishlamaydilar... Ishlolmaydilar. Otam betoblar. Rossiyaga ishlagani ketgandilar. O‘sha yerda baland binodan yiqilib tushganlar. Umurtqalari singan...

– Xudo shifo bersin. Xudo xohlasa, otang tuzalib ketadi, – ularga taskin berishga berdim-u, ikkalovi ham bu gapimdan battarroq tushkunlikka tushganini sezib qoldim.

– Do‘xtirlar uch oylik umri qolgan, deyishibdi. Onam buvimlarga aytib yig‘layotganlarini eshitib qolgandim, – qizcha kattalardek mulohaza bilan gapirdi. – Mayli, amaki, biz endi ketsak bo‘ladimi? Kech tushib qoldi, onamga “boryapmiz”, deb qo‘ng‘iroq qilganimizga ancha bo‘ldi...

Aftidan ular “bu odam bizni qo‘yib yubormaydi”, deb qo‘rqayotgan edi. Bolalar shirinliklar, do‘kondagi yeguliklarga ko‘z ostidan qarab qo‘yganini sezib turgandim. Shuning uchun ularni mehmon qilishni xohladim. Qahvaqaynatkichda sut qaynatib, kakao qo‘shdim. So‘ng taqsimchada pechenye bilan oldilariga qo‘ydim. Bola kakaoni ichib, pechenyedan yedi, qizcha esa faqat kakao ichdi xolos.

– Sen pechenyeni yoqtirmaysanmi? Unda yong‘oqli pirojniy bera qolay? – dedim qizchaga.

– Yo‘q, shunga ham katta rahmat... Faqat bu pechenyelarni onamga olib bormoqchi edim, agar ruxsat bersangiz, – qizcha katta-katta ko‘zlarini iltijoli tikib, yolvorgandek so‘radi. – Onam biz uchun dam olmay ishlaydilar, lekin hech qachon o‘zlari bir yaxshi narsa olib yemaydilar. Otam-ku kasal yotibdilar, onam ham kasal bo‘lib qolsalar, biz nima qilamiz?

Men bolaligimdan hech qachon muhtojlik ko‘rmay o‘sgandim. Bola bo‘lib, biror nimaga zoriqqanimni ham eslolmayman. Narsa-buyum, yeguliklar-ku, mayli, men hatto odam qadrini ham bilmas ekanman. Ota-onam omonat, bugun ularning diydoriga to‘yib qolay, ertaga armonda qolmasligim uchun, bugun ularning ko‘nglini topay, deb hech o‘ylamagan ekanman. Qizaloq ikki dona pechenyeni onasiga ilinganini, uning betob bo‘lib qolishidan xavotirdaligini aytib, men g‘ofilni g‘aflat uyqusidan turtib uyg‘otgandi. Yig‘lab yubormaslik uchun ko‘zlarimni yashirdim.

– Sen pechenyengni yegin. Men onang va otang uchun alohida beraman. Ularga mening salomimni aytgin, otang albatta tuzalib ketsin, – dedim.

Yelim xaltaga shirinliklardan, konfet-shokoladlardan, guruch, makaronlardan soldim. Xaltani qo‘liga tutqazgandim, qizcha yana bir g‘alati gap qildi:

– Amaki, siz bizga berayotgan bu narsalaringizga rozimisiz?

– Ha, albatta, rozi bo‘lib, chin ko‘ngildan beryapman. Sizlar yaxshi bola ekansizlar. Onangga mening rahmatimni aytgin.

– Onam bizga “Norozilik narsa buyurmaydi, bozordan bir narsa xarid qilsangiz ham, roziligini so‘ranglar”, deydilar-da, shunga so‘ragandim, – dedi qizcha qo‘lidagi xaltaga qayta-qayta qaragancha.

– Siz boymisiz? – boyadan beri gapga qo‘shilmay turgan bolakay birdan so‘radi. Nima deb javob berishni bilmay, bir muddat so‘zimni yo‘qotdim. Jim turganimni tasdiq ma'nosida tushungan bola gapida davom etdi: – Boy bo‘lsangiz ham, juda yaxshi inson ekansiz. Men ham katta bo‘lsam, sizga o‘xshagan yaxshi boy bo‘laman!

Qizcha bilan bolakay rahmat aytib, xayrlashib, do‘konni tark etdi. Bu tasodifiy tanishuv dunyoqarashimni o‘zgartirib yubordi. Eng muhimi, men bu uchrashuvdan katta saboq olgandim...

Umida AZIZ,
jurnalist

Konstitutsiya – Bosh qomusimiz

ERKINLIK KAFOLATI

Konstitutsiya har bir fuqaroning erkin va farovon yashashini kafolatlashga yo‘naltirilgan muhim huquqiy hujjatdir. Bosh qomusimizda ijtimoiy adolatni ta’minlashga oid prinsiplar aks ettirilgan bo‘lib, fuqarolarning hayotidagi muhim jihatlarni belgilaydi.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiya demokratik prinsiplarni e’tiborga olib, jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, Asosiy qonunimiz fuqarolarning hayotidagi muhim bo‘lgan jihatlarni qamrab olgan. Birinchidan, erkinlik kafolati – insonning asosiy huquqlari va erkinliklari, xususan so‘z erkinligi, e’tiqod va o‘z fikrini ifodalash huquqi aniq belgilangan. Bu fuqarolarning jamiyatda faol ishtirok etishi uchun huquqiy asos yaratadi. Mazkur erkinliklar insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har bir fuqaroga o‘z huquqlarini himoya qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan me’yorlarni o‘z ichiga oladi. U fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Masalan, ta’lim, tibbiy xizmat va ijtimoiy ta’minot sohasidagi kafolatlar, har bir shaxsning farovon hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy adolat fuqarolarning hayot darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha davlat siyosati har bir fuqaroning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatning rivojlanishi va har bir shaxsning farovonligi uchun mustahkam asosdir.

Polkovnik
Ilyos VALIXONOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi

“Vatanparvar” faollari

“Daraxt bir joyda ko‘karadi”, deb bejiz aytishmagan. Salkam qirq yildan buyon “Vatanparvar” tashkiloti tizimida mehnat qilib kelayotgan, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Hazorasp tumani o‘quv sport-texnika klubi boshlig‘i Yarashboy Polvonov faoliyati bu fikrning yorqin dalilidir.

ILDIZLAR VA YAPROQLAR





Avtotransport sohasiga bo‘lgan qiziqish Yarashboy og‘ani Toshkent avtomobil yo‘llari institutiga boshlab keldi. Bu dargohda murg‘ak qalbida ilk chechak otgan muhandislik kasbiga bo‘lgan havasni hayotiy tajriba va malakali bilim sohibi bo‘lgan ustozlar ulg‘aytirdi. Institutning ilg‘or va zabardast o‘qituvchilaridan o‘qib-o‘rgangan Yarashboy aka bu kasbga yanada mehr qo‘ydi.

Oliy dargohni muvaffaqiyatli bitirgan Y. Polvonov qo‘lida yo‘llanma, qalbida bir olam orzu bilan Xorazm viloyati DOSAAF *(hozirgi “Vatanparvar” kengashi)*da ish boshladi. Bu yerda u yoshlarimiz ongida yurtni sevish, xalqimizga sadoqatli farzand bo‘lish hamda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdek mushtarak maqsadlar sari intildi. Uning eng katta orzusi teran ildizlardan olgan bilimlarini yaproqlarga berish, ularning qalbiga ezgulik urug‘larini sochish edi. Va provard-natija shunday bo‘ldi ham. Yarashboy Polvonovning ko‘plab shogirdlari bugungi kunda “Vatanparvar” tashkiloti tizimi, avtotransport sohasida viloyatning turli joylarida qanchadan qancha yoshlarga kasb-hunar sir-asrorlarini o‘rgatib kelmoqda.

2014-yilda qayta tashkil etilgan Y. Polvonov rahbarlik qilayotgan Hazorasp tumani o‘quv sport-texnika klubida yoshlar sportning texnik va amaliy turlari bilan shug‘ullanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘z navbatida, bu boradagi natijalar ham chakki emas. Shuningdek, klubda xalq xo‘jaligi uchun turli toifali haydovchilar tayyorlash ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Zamon talablari asosida qayta jihozlangan o‘quv binosi ma’naviyat va ma’rifat xonasida harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti doirasida ma’ruzalar, suhbatlar o‘tkaziladi. Mahalla, tashkilot va o‘quv muassasalarida tematik kecha va uchrashuvlar tashkil etish an’ana tusini olgan. Harbiy qismlarga chiqishlar, ekskursiyalar, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar – barcha-barchasining zamirida yoshlarimizni ona Vatanga sadoqatli, ongli fuqarolar sifatida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, hamjihatlik kabi fazilatlarni kamol toptirishdek ezgu maqsadlar yotadi.

– Yangi O‘zbekiston bizga nafaqat faxrlanish, balki yanada shijoat bilan ishlash imkoniyatini ham berdi, – deydi o‘z sohasining past-u balandini yaxshi biladigan, tajribali, serg‘ayrat rahbar.

O‘z hamkasblari va Oybek Sultonov, Komiljon Abdurahmonov kabi iqtidorli shogirdlari bilan faxrlanib gapirayotgan Yarashboy Polvonovning ko‘zlarida nur jilolanadi. U bu yerda kasb-hunar o‘rganayotgan yoshlarning har biri kelgusida o‘z shogirdlari bilan faxrlanishga, ildizlar bergan ozuqaning bejiz va beiz ketmasligiga, uning har bir yaproqqa yetib borishiga ishonadi.

Akbar ALLAMURODOV

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun

BUYUK IXTIROLAR



PLASTILIN qanday paydo bo‘lgan?



Bolajonlar, sahifamizda o‘quv qurollaringiz ichida o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadigan plastilin haqida qiziqarli ma’lumotlar to‘pladik. Plastilinning ixtirochilari kimlar ekanini bilarmidingiz?

“Plastilin” nomi italyancha “plastilina” so‘zidan olingan, yunoncha “plastos”, ya’ni yasash ma’nosini anglatgan. Plastilin haqida ilk tushunchalar XIX asrning oxirlarida paydo bo‘lgan. Bu xususda aynan kimni ixtirochi deb atash kerakligi haqidagi munozaralar hanuz davom etmoqda. 1880-yilda nemis ixtirochisi Frans Kolb va 1899-yilda ingliz olimi Uilyam Xarbut o‘zlari ixtiro qilgan yangi moddani namoyish etadi va bu ixtirolariga o‘xshash nomlar bilan patent oladi, ya’ni “Plastilin” va “Plasticine”. San’at maktabi o‘qituvchisi Uilyam bu kulrang loydan bolalar bilan ishlashda foydalangan. U o‘z shogirdlarini haykallar yaratishda qurib qolmaydigan va qayta-qayta ishlatilishi mumkin bo‘lgan material bilan ta’minlashni istagan. Shu bilan birga u oilasining plastilindan qanchalik zavq olganini ko‘rgach, undan ko‘p miqdorda tayyorlab sotish fikriga keladi.

Uning yana bir ixtirochisi deraza romlari ishlab chiqaruvchisi amerikalik Jo Makviker edi. U bolalar bog‘chasida ishlaydigan qarindoshiga plastilin namunasini yuboradi. Tarbiyachi esa bolalarga bu massadan har xil buyumlar yasashni taklif qiladi. Bolalarga bu yangilik juda yoqqani uchun asta-sekin bu material oddiy loyning o‘rnini egallay boshlaydi.

Avvaliga bu massani nima maqsadda ishlatish mumkinligi aniq bo‘lmagan. Yana bir ma‘lumotga ko‘ra, plastilin devor qog‘ozini dog‘lardan tozalash uchun ishlatilgan deyiladi. Ha, aytgancha, bolajonlar, ilk plastilin rangli bo‘lmagan. Plastilin tozalangan va elangan tuproqdan tayyorlangan. Uning havoda qurib qolishining oldini olish uchun tuproqqa mum, hayvon yog‘i va neft qo‘shilgan. Keyinchalik unga bo‘yoq qo‘shib, to‘rtta asosiy rang paydo qilgan.



O‘shandan buyon rassomlar, me’morlar, muhandislar va bolalar turli xil narsalarni yaratish uchun tonnalab plastilindan foydalangan. Ushbu material qog‘oz, yog‘och, yelim va kartonga osongina yopishtiriladi. Yuqori sifatli plastilindan yasalgan narsalar o‘z shakli va sifatini yo‘qotmaydi hamda uzoq vaqt ochiq havoda qolsa ham, ularga ziyon yetmaydi. Shuning uchun plastilin tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishda bitmas-tuganmas manba hisoblanadi. Undan turli buyumlar yasash nutqni, fazoviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, diqqatli bo‘lishga o‘rgatadi hamda dunyoqarashni kengaytiradi.



YAXSHILIKNI BILMAGAN QOPLON

(o‘zbek xalq ertagi)



Bir kishi bo‘sh qopni yelkasiga tashlab kelayotgan ekan. To‘satdan u daraxtlar orasida yarador bo‘lib yotgan qoplonni ko‘rib qolibdi. Qoplon boyagi kishidan:

– Xudo xayringni bersin, meni o‘sha qopingga solib ol, – deb iltimos qilibdi.

– Meni yemaslikka so‘z berasanmi? – so‘rabdi u.

Qoplon ma‘qul degandek bosh qimirlatibdi. Shundan keyin yo‘lovchi qoplonni qopga solibdi-da, xuddi o‘tin orqalangandek orqalab yo‘lga tushibdi.

Ko‘p o‘tmay, qoplonni axtarib yurgan ovchilarga duch kelibdi. Ulardan biri yo‘lovchidan:

– Birodar, shu yerdan o‘tgan qoplonni ko‘rmadingmi? – deb so‘rabdi.

– Yo‘q, ko‘rganim yo‘q, – javob beribdi yo‘lovchi.

Ovchilar hech nimani payqamay, yo‘lida davom etibdi, shunda yo‘lovchi qoplonni qopdan chiqarib yuboribdi.

– Hoy odam bolasi, sen endi mendan qutulib hech qayerga ketolmaysan, men seni yeyman! – debdi qoplon.

– Nega endi meni yemoqchi bo‘lib qolding, qoplonvoy? – so‘rabdi qoplonni qutqargan. – Axir men seni o‘limdan qutqarib qoldim-ku! Nahotki, hozir o‘tib ketgan ovchilarning gaplarini eshitmagan bo‘lsang! Men bergan va‘damning ustidan chiqdim, sen bo‘lsang shartimizni buzyapsan. Agar meni yemoqchi ekansan, yur, qoziga boramiz. Mayli, sening qon-qarindoshlaring bizning masalamizni hal qilib bera qolsin.

Qozixonaga uy hayvonlari bilan yirtqich hayvonlar yig‘ilibdi.

Birinchi bo‘lib sirtlon gapiribdi:

– Menimcha, bu odamni yeyish kerak, – debdi u.

Undan keyingi navbatda gapirgan hayvonlarning hammasi bir ovozdan:

– Bu odam yeyilishi kerak, – deb qoplonning fikrini ma‘qullabdi.

Nihoyat, navbat maymunga kelibdi.

– Qani, menga ko‘rsat-chi, qanday qilib sen qoplonni halokatdan saqlab qolding? – debdi u.

Yo‘lovchi qopini ochib, ichiga qoplonni qamab olibdi.

– Yaxshi, – debdi maymun, – endi qopning og‘zini bog‘la.

Yo‘lovchi maymun buyurganday qilibdi.

– Ana endi, bir marta unga nayza tiqib ol-da, menga ko‘rsat, o‘shanda men o‘z fikrimni aytaman, – debdi maymun.

Yo‘lovchi qopga nayza sanchibdi, yaxshilikni bilmagan qoplonni o‘ldiribdi.

Shuning uchun ham qoplonni dumidan ushlama, ushladingmi, qo‘yib yuborma, deyiladi.



Sahifani Mastura QURBONOVA tayyorladi.

Ma’naviyat

Ijtimoiy tarmoq tarbiyasidagi avlod

Raqamli texnologiyalar insoniyat hayotining barcha jabhalariga kirib borishi natijasida jamiyat shiddat bilan virtuallashmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning maishiylashuvi yosh avlodlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir qilmoqdami yoki salbiy? Keling, ushbu maqolada shu xususda fikr yuritsak.



Dunyo axborot asrida yashamoqda. Endilikda zamonaviy texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur etishimiz tobora qiyinlashib bormoqda. Bugun hatto bog‘cha tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi ilovalar va internetdan foydalanishni o‘rganib olmoqda. Katta-yu kichik orasida internetdan foydalanuvchilar, vaqtini ko‘proq u bilan o‘tkazuvchilar ortmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham oltin qoidaga, ya’ni me’yorni unutmaslik shartiga amal qilish zarur.

Internet va ijtimoiy xizmatlarning jadal rivojlanishi va kengayishi tadqiqot qiziqishlarining yangi sohasini, ya’ni virtual yoki onlayn jamoalar deb ataladigan internetdagi ijtimoiy tarmoqlarni yaratishga sabab bo‘ladi. Hozirda dunyo bo‘ylab besh milliarddan ortiq odam ulardan foydalanib kelmoqda va uning ta’sirida globallashuv jarayoni yanada jadallashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar odatda foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentga ega bo‘lishi bilan ahamiyatli hamda keng auditoriyani yoqtirishlar *(Like)*, ulashishlar *(Share)*, sharhlar *(Comment)* orqali jalb qilish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar jamiyatimizning bir-biri bilan bog‘lanish, biznes yuritish va ijtimoiylashuv usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Bugungi bolalar va yoshlar ijtimoiy tarmoqlarsiz dunyoni bu qadar anglamagan bo‘lardi, ehtimol.

Afzalliklari

Birinchidan: u ijtimoiy ko‘nikmalarni oshiradi. Ya’ni ijtimoiy tarmoq hozirgi odamlarga yangi do‘stlar orttirish va tanishish imkonini beradi. Agar u to‘g‘ri qo‘llanilsa, shaxsning o‘ziga bo‘lgan hurmati oshadi va atrofdagilardan o‘zini kamroq izolyatsiya qilishiga yordam beradi.

Ikkinchidan: mustaqillik va o‘zini namoyon qilish tushunchalarini paydo qiladi. Bunda o‘zingizning “shaxsiy sahifa”ngizni yaratish orqali odamlarga o‘z fikrlaringizni bildirishingiz va qiziqishlaringizni muhokama qilishingiz hamda hayotdagi o‘z pozitsiyangizni namoyish etishingiz mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan: raqamli kompetensiya. Texnologiya har qachongidan ham tezroq rivojlanmoqda. O‘smirlar va yoshlar yangi texnologiyalarga moslashishni o‘rganganlarida, ular kelajakdagi texnologiyaga moslashish uchun yaxshi tajribaga ega bo‘ladi, ya’ni bunda raqamli kompetentlik ortadi.

To‘rtinchidan, ta’limni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi. Bunda maktab, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi bosqichdagi o‘quvchilar ta’lim bilan bog‘liq bilimlarni mukammal egallash, topshiriqlarni bajarish hamda bu bo‘yicha munozaralarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘pgina kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz, yangi do‘stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo‘lishimiz, yangi narsalar o‘rganishimiz, do‘stlarimiz bilan suhbatlashishimiz mumkin. Hattoki hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o‘z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o‘z mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o‘zlari uchun xaridorlar auditoriyasini yig‘ish va yangi mahsulotlarini xaridorlarga e’lon qilishlari mumkin. Bu albatta, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun afzalliklari.

Salbiy jihatlari

Bugungi kunda hamma “YouTube”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter” kabi ijtimoiy tarmoq va “Telegram” messenjerlarini biladi. Odamlar hech bo‘lmaganda ularning bittasidan foydalanadi. Ayniqsa, yoshlar bu masalada faol va aynan shuning o‘zi muammo hamdir. Nima uchun? **Sabab bitta: ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar har doim ham to‘g‘ri va obyektiv emas**. Tabiiyki, ijtimoiy tarmoq yoshlarning ma’naviyati, ruhiyati, axloqiga tahdid solmaydi degan kafolat yo‘q. Chunki ijtimoiy tarmoqlar orqali ong va aqlni egallash tahdidi mavjud. Yoshlar o‘zining tajribasizligi, psixologik va fiziologik yetilmagani bois tarmoqlardan kelgan ma’lumotlarni tahlil etish va sintez qilishga qodir emas. Shu sabab yolg‘on va xolis ma’lumotlar ularni osonlikcha yo‘ldan ozdirishi mumkin.

Insonlarning internetga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda va televideniyening axborot iste’molidagi roli asta-sekin pasaymoqda. Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston aholisining deyarli 60 foizi televideniyeni va 40 foizi veb-saytlarni afzal ko‘radi. O‘tkazilgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda eng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar **“Telegram” *(73,4 %)*, “YouTube” *(42,7 %)* va “Instagram” 27,4 foizni** tashkil etadi. O‘zbekistonda eng ommabop ijtimoiy tarmoqlardan **“Instagram” 8 million, “Facebook” 2,2 million, “VKontakte” va “Odnoklassniki”ning auditoriyasi 2 millionni** tashkil etgan.

Ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilar matnli postlardagi ma’lumotlarni kamroq qabul qiladi, ko‘proq videokontentga qiziqadi. Globallashuv jarayonida bugungi yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan xabarlar ham tuzatib bo‘lmas darajada ziyon keltirishi mumkin.

Internet yordamida jahon elektron bozori, elektron biznes shakllanmoqda. Siyosiy sohada internet insonni shaxs sifatida bir yo‘nalishli mafkura ta’siridan himoya qiladi. **Internetning eng yorqin xususiyatlari uning o‘ziga xosligi, millatlararoligi, ochiqligi, chegarasizligi, murakkabligi, integratsiya va universalligida namoyon bo‘ladi**.

Biroq global axborot tarmog‘ining rivojlanishida yuzaga keladigan muammolar ham bisyor. Eng asosiy kamchilik tarmoqlarda joylashtirilgan ma’lumotlar hajmini nazorat qilishning imkoni yo‘qligida. Manbalarda turli ma’lumotlar paydo bo‘ladi, ular orasida axloqiy jihatdan salbiylari ko‘p uchraydi. Internet insonning aqliy va jismoniy qobiliyatiga alohida talablar qo‘yadi, chunki bu tizimga berilib ketish, ya’ni virtual olamga kirib kelish, real hayotdan uzoqlashishga olib keladi.

Raqamlar aldamaydi

Yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot materiallarini berib borish, yoshlarni internetdagi turli axborot xurujlaridan himoyalashga asoslangan elektron resurslarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mafkuraviy tahdidlar orqali yoshlarning qarashini o‘ziga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirishga, axloqsizlik kabi buzg‘unchi g‘oyalarni singdirishga urinishlar bo‘lmoqda. Birgina 2021-yilning dekabr holatiga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentida ma’naviy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi **130 ga yaqin guruh, sahifa va kanal** mavjudligi aniqlangan bo‘lib, **ularda 2 646 ta material tarqatilgan**. Ushbu materiallarning aksariyati “Odnoklassniki” *(55 ta guruhning 1 962 ta materiali)* va “Instagram” *(60 ta guruhning 684 ta materiali)* ijtimoiy tarmoqlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. **2021-yilda axloqsizlik, behayolikni targ‘ib qiluvchi 1 650 ta vebsaytdan mamlakat hududida foydalanish belgilangan tartibda cheklangan**.

O‘quvchi-yoshlarning ongiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi kontentlarga qarshi kurashish, diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi, tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, totalizatorlar, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan hamda jamiyatda buzg‘unchilik g‘oyalarini targ‘ib etadigan veb-resurslarni doimiy ravishda cheklab borish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Borgan sari bolalarning raqamli texnologiyalarga ruju qo‘yib borishi, ularning real hayotdan uzilishi, odatiy bolalar kabi ko‘chada to‘p surib, quvlashmachoq o‘ynovchi bolalarning ham shovqin-suroni quloqqa kam chalinmoqda. Chunki o‘zini kundalik hayotda, tengdoshlari davrasida, oilaviy munosabatlarda ota-ona farzand munosabatlarini qanday tashkil etishdagi ma’lumot va axborotlarni o‘zida o‘rnak sifatida o‘zlashtirib oluvchi makon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida muhim rol o‘ynovchi har qanday salbiy omillarni bartaraf etishda uni paydo qiluvchi ildizlarini aniqlash va oldini olish choralarini ko‘rish jamiyatning ertangi egalari bo‘lmish avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher MADRAHIMOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5849
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 970 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya